

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**



**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI  
Tarix FAKULTETI**

**151- guruhi talabasi Yuldasheva Shahlo Shuxrat qizining**  
**5111600 "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi**  
**bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun**

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: O`zbekistonda oila institutining konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlanishi masalalari.**

**Ilmiy rahbar:**

**dotsent U.A.Sheripov**

**Urganch- 2019 yil**

# **O`ZBEKISTONDA OILA INSTITUTINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY KAFOLATLANISHI MASALALARI**

## **MUNDARIJA**

**KIRISH.....15-19**

<b>I BOB. O`ZBEKISTONDA OILA INSTITUTINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI.....20-38</b>
1.1. Oilaning jamiyat hayotida tutgan o`rni va ahamiyati.....20-26
1.2. O`zbekistonda oila institutining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari.....27-34
1.3. Xorijiy mamlakatlarda oila institutini konstitutsiyaviy mustahkamlanishi masalalari.....35-38
<b>II BOB. O`ZBEKISTONDA OILAVIY MUNOSABATLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI VA OILA QONUNCHILIGINING TAKOMILLASHUVI MASALALARI.....39-64</b>
2.1. O`zbekiston Respublikasida oilani ijtimoiy va huquqiy muhofaza qilishning huquqiy asoslari.....39-51
2.2. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida oila qonunchiligini takomillashuvi masalalari.....52-64
Xulosa.....65-74
<b>Foydalilanigan adabiyotlar ro`yxati .....75-79</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Bugun davlat va jamiyat haqida so`z borar ekan, jamiyatning asosiy yacheykasi bo`lmish oilasiz, uning muhim o`rni va rolisiz to`laqonli davlat va jamiyat haqida fikr yuritish qiyin bo`ladi. Zero O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning so`zlari bilan aytganda: “Ichki va tashqi siyosatning yo`nalishlari, ularning mantiqi to`laligicha pirovard maqsad - chinakam mustaqil O`zbekistonni barpo etish maqsadi bilan belgilanadi. Respublikada sobitqadamlik bilan halqchiladolatli jamiyatni bunyod etish - bosh vazifadir. Mehnatsevar va badavlat, ma’naviy etuk va madaniyatli oila - shu jamiyatning asosini tashkil etadi<sup>1</sup>. O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 21 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimda so`zlagan nutqida ham ushbu masalaga alohida urg`u berib quyidagilarni ta’kidlaydi: “Bir paytlar, bu shiorlar hayotimizdan endigina o`rin topayotgan bir sharoitda kimdir balki bu islohotlarning ma’no-mazmunini tushunmagan bo`lsa, xalqimiz bugun ularning maqsadi va mohiyatini, bu o`zgarishlarning barchasi uning o`zi, oilasi, kelajagi uchun amalga oshirilayotganini tobora chuqr anglab olmoqda. SHuning uchun ham agar hozirgi vaqtida hayotimizning biron-bir sohasini isloh qiladigan bo`lsak, avvalambor bundan ko`zlangan maqsad nimadan iborat ekanini, nima uchun bu o`zgarishni ertaga emas, aynan bugun qilishimiz zarurligini odamlarimizga sodda va aniq qilib tushuntirib berishimiz lozim. Lo`nda qilib aytganda, baraka topkur, bu ishlar sening manfaating uchun, sening ertangi kuning, bolalarining uchun, ularning hech kimdan kam bo`lmasdan yashashi uchun qilinyapti, agarki bu ishlarni qilmasak, biz ertaga taraqqiyotdan chekkada qolib ketishimiz mumkin, degan da’vatlar bilan odamlar ongiga ezgu g`oyalarimizni singdira olsakkina, boshlagan islohotlarimiz kutilgan natijani beradi”<sup>2</sup>. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyev ham o`zining nutqlarida oila va uning jamiyatda tutgan o`rniga alohida e`tibor bilan qaraydi. Jumladan

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мағкура. Т.: Ўзбекистон. 1993. 33-б

<sup>2</sup> Каримов И.А. Амалга ошираётган ислохотларимизни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамияти қуриш – ёруғ келажагимизнинг асосий омилидир. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 21 йиллигига бағишиланган тантанали маросимдаги маъруза. Т. Халқ сўзи. 2013 йил 8 декабр

2018 yilning 19—20-yanvar kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi davomida viloyat faollari bilan <sup>1</sup>uchrashuvda «Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo`lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo`lsa, baxtli bo`lsa, vatan tinch bo`ladi. O`sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko`rish hammamizga nasib etsin!<sup>2</sup>», — deya ta'kidlagan.

SHu bois mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zamirida oilaviy qadriyatlarning e'tirof etilishi, oilaga jamiyat ma'naviyatining asosiy o`chog`i sifatida baho berilishi yuqoridagi fikrlarni isbotlaydi. Xususan oila institutining konstitutsiyaviy mustahkamlanishi va kafolatlanishi ham halqimiz hayotida oilaning naqadar muhim o`rin egallaganidan dalolat beradi.

Dastlab konstitutsiyaviy komissiya tomonidan konstitutsianing loyihasi ishlab chiqilayotgan pallada aynan O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan Konstitutsiyada alohida bobning oilaga ajratilishi to`g`risidagi g`oyaning o`rtaga tashlanishi va keyinchalik bu fikr mustaqil O`zbekiston Konstitutsiyasida aks etishi nafaqat o`zbek konstitutsiyaviy taraqqiyotida balki jaxon konstitutsionalizmimda muhim yangilik bo`ldi desak yanglishmagan bo`lamiz. To`g`ri xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarining qiyosiy-huquqiy tahlili ushbu mamlakatlarda u yoki bu tarzda oilaga oid normalar mavjudligini ko`rsatsada, biroq biron ta mamlakat konstitutsiyasida aynan oilaga oid munosabatlar majmui alohida bob tarzida berilishi tajribasi yo`q. Bu albatta bejiz emas. Zero Prezidentimizning so`zlari bilan aytganda “Pok va sofdil shaxsni tarbiyalashda, ona tilini qayta tiklashda hech kim va hech narsa oila bilan tenglasha olmaydi”<sup>2</sup>. 2014 yilning ham O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan “Sog`lom bola” yili deb e`lon qilinishi oilada sog`lom farzandning tug`ilishi, uni barkamol inson sifatida voyaga etkazish bilan bog`liq

---

<sup>1</sup> 2018 yilning 19—20-yanvar kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifidagi ma`ruzasi

<sup>2</sup> Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.: Ўзбекистон. 1995, 161-б.

ezgu maqsadlarimizni ro`yobga chiqarishga qaratilgan desak mubolag`a bo`lmaydi.

SHu bilan bir qatorda oxirgi yillarda oila bilan bog`liq yangi munosabatlar shakllanmoqdaki, bu esa o`z navbatida O`zbekistonda oila qonunchiligining takomillashuvi, uning rivojlanishi uchun sharoitlar yaratmoqda. SHu bois, fikrimizcha, oila qonunchiligi, uning takomillashuvi bilan bog`liq masalalarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuning o`rganilganlik darajasi.** Tadqiqot ishining nazariy metodologik va kontseptual jihatlari O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida har tomonlama va tizimli tarzda yoritilib berilgan. Ushbu asarlarda demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etish jarayonida oila institutini mustahkamlashga oid kontseptual g`oya va fikrlar mavjud.

Respublikamiz o`z mustaqilligini qo`lga kiritishi va mamlakatda huquqiy islohotlarning amalga oshirilishi oila instituti masalalariga, oilaning konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi bilan bog`liq masalalarga bag`ishlangan ko`plab tadqiqotlarning olib borilishi uchun asos bo`ldi. Xususan o`zbek olimlari Abdullaeva M.<sup>1</sup>, Axmedov B.<sup>2</sup>, Yo`ldoshev J., Xasanov S.<sup>3</sup>, Raxmonkulov X.<sup>4</sup>, Latipova X.M.<sup>5</sup> Otaxo`jaev F.<sup>6</sup>, Rizouddin Ibn Faxruddin<sup>7</sup>, Qur'onov M., Bazarov O.<sup>8</sup> Odilqoriev X.<sup>9</sup>, Inamjanova G.S.<sup>1</sup>, Imomov N, YUldasheva SH<sup>2</sup>, Xodjaeva

<sup>1</sup> Абдуллаева М. «Енциклопедия семи». «Мустаҳкам оила – баркарор жамият тараккиёти кафолати». Республика илмий-амалий конференция материалари. Ташкент 2012 г. стр. 378-379

<sup>2</sup> Ахмедов Б. Ўзбек улуси. Т., 1992.

<sup>3</sup> Йўлдошев Ж, Хасанов С. «Авесто»да ахлоқий-таълимий карашлар. Т., 1992.

<sup>4</sup> РахмонкуловХ. Фуқаролик: хукуклар, еркинликлар, бурчлар. Т., «Ўзбекистон», 1991.

<sup>5</sup> Латипова Х.М. Социално-правовые проблемы развития статуса молодежи в условиях государственной независимости РУз:Автореф... дис. канд. юрид. наук (12.00.01) 1993 й. ЎзР Фанлар Академияси М.Мўминов номидаги Фалсафа ва хукук институти

<sup>6</sup> Атаходжаев Ф.М. "Возникновение и развитие советского законодательства о заключении и расторжении брака в Узбекистане. Ташкент: Изд-во СамГУ, 1983. - 131 с; Ф.Отахўжаев Никоҳ ва унинг хукукий тартибиғи солиниши. Т., «Ўзбекистон», 1995;. Конституция ва оила. ТДЮИ, 2002.

<sup>7</sup> Ризоуддин Ибн Фахруддин. Оила. Т., «Мехнат», 1991.

<sup>8</sup>Қуронов М.БазаровО. Оилам мустаҳкам бўлсин десангиз. Сано-стандарт нашриёти. Тошкент 2012.

<sup>9</sup> Одилкориев X.. Конституция ва фуқаролик жамияти. - Тошкент: Шарқ, 2002.-Б.320, Одилкориев X.T. Конституция ва баркамол жамият орзуси.Т.: “Ўқитувчи” НМИУ. 2012.

Xodjaeva S.A.<sup>3</sup> larning ishlarida oila institutining ilmiy-nazariy asoslari, oilaning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari bilan bog liq masalalar tadqiq etilgan.

Oila institutining ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish borasida xorijiy mamlakatlar olimlarining ishlarini ham alohida ta'kidlab o'tish lozim. Xususan YU.F. Bespalov<sup>4</sup>, G.V. Bogdanova<sup>5</sup>, N.E. Borisova<sup>6</sup>, H.H. Galkina<sup>7</sup> S.V. Volkova<sup>8</sup> larning ishlarida oilaga oid masalalar tadqiq etilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** O`zbekiston Respublikasida oila institutining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari va ularning takomillashuvi bilan bog`liq masalalarni kompleks o`rganish va tahlil qilish orqali ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:** Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilanadi:

- Xorijiy davlatlarda oila institutining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini qiyosiy-huquqiy tahlil etish orqali milliy qonunchiligidan takomillashtirishga oid takliflarni ishlab chiqish;
- O`zbekistonda oila institutining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarining shakllanishi va rivojlanishining tarixiy nazariy asoslari, asosiy yo`nalishlarini ilmiy-nazariy va huquqiy asoslarini tadqiq etish;
- O`zbekistonda oila institutini mustahkamlash va ijtimoiy muhofaza qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini tadqiq etish;

<sup>1</sup> Инамджанова Г.С. Ота-оналар ва болаларнинг ҳуқуқларини оила ҳукумат ҳимоя қилиш муаммолари: Автореф... дис. канд. юрид. наук. (12.00.03) 2005 й. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги Тошкент Давлат юридик институти

<sup>2</sup> Имомов Н, Юлдашева Ш. Мустаҳкам оила –жамият ва давлат таянчи. ТДЮИ. 2011.

<sup>3</sup> Ходжаева С.А. Правовая культура и проблемы развития социально-правовой активности женщин Республики Узбекистан: Автореф... дис. канд. юрид. наук. (12.00.01) 2004 й Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси

<sup>4</sup> Беспалов Ю.Ф. Теоретические и практические проблемы реализации семейных прав ребенка в Российской Федерации: Автореф. дис. ... д-ра юрид. наук (12.00.03). Саратов, 2002. - 44 с.

<sup>5</sup> Богданова Г.В. Проблемы правового регулирования личных и имущественных отношений между родителями и детми: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук (12.00.03). Саратов, 1999. - 34 с.

<sup>6</sup> Борисова Н.Е. Конституционные основы правового положения несовершеннолетних в Российской Федерации (проблемы теории и практики): Автореф. дис. ... д-ра юрид. наук (12.00.02). М., 2004. - 46 с.

<sup>7</sup> Галкина Қ.Қ. Государственное управление в области реализации семейной политики: Автореф. дис. ... канд. юрид. наук (12.00.02). М., 1997. - 21 с.

<sup>8</sup> Волкова С.В. Государственная защита прав детей в субъектах Российской Федерации (На примере деятельности Правительства г. Москвы): Автореф. дис. ... канд. юрид. наук (12.00.14). М., 2001.-23 с.

- O`zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida oila institutini takomillashtirish bo`yicha taklif va tafsiyalar ishlab chiqish va boshqalar.

**Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, besh paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat

## **I BOB. O`ZBEKISTONDA OILA INSTITUTINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI**

### **1.1. Oilaning jamiyat hayotida tutgan o`rni va ahamiyati.**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va yangilanishlarning asosiy maqsadi O`zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir. YUrtimiz mustaqillikka erishib, halqimiz yangi davlat, yangi jamiyat poydevorini kurishga kirishgan ilk kunlardanoq kuchli ijtimoiy himoya ichki siyosatimizning muhim yunalishlaridan biri etib belgilandi. Mamlakatni isloh etish, yangilashdek murakkab jarayonlarda inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlarini ta'minlashga bиринчи galdagi vazifa sifatida karaldi. O`zbekiston Respublikasining bиринчи Prezidenti Islom Karimov tomonidan ilgari surilgan «Islohot islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning manfaatlari uchun» degan tamoyil hayotda o`z isbotini topib, yurtdoshlarimizning ertangi kunga, davlatimizning yorqin kelajagiga bo`lgan ishonchi mustahkamlandi. Albatta, bu sa'y-harakatlar, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlardan ko`zlangan asosiy maqsad mamlakatimizni jaxonning taraqqiy etgan davlatlari qatoriga chiqarish, halqimizning munosib hayot kechirishiga xizmat qiladigan jamiyat barpo etishdir. Orzuimizdagи jamiyat esa mustahkam, moddiy va ma'naviy jixatdan but, tinch-totuv, fayzli oilalardan tashkil topadi. Zero halqimizda qadim-qadimdan oilaga muqaddas qo`rg`on sifatida qaralgan. Bu borada O`zbekiston Respublikasining Prezidenti SHavkat Miromonovich Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirib o`tish joiz: «Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qaerda ishlashidan qat'i nazar, kim bo`lishidan qat'i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo`lmaydi. SHuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham

alohida o`zimning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman»<sup>1</sup>, — deydi u.

Asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan yana bir urf borki, uni aytib o`tmaslikning iloji yo`q. YOsh oila hayotda qiyalmay, tinch va baxtli umrguzaronlik qilishi uchun dastlab o`z ota-onasi, ya`ni katta oila bag`rida chinakam hayot maktabini o`taydi. Bu orada yosh oila moddiy va ma`nan jixatdan qaddini tiklab, zarur shart-sharoitlarni yaratib oladi. Eng muhim, ushbu jarayonlarning barchasiga ota-onas raxnamolik qiladi. Buni esa eng oliy darajadagi ma`naviy qadriyat deyish mumkin.

Oila xaqida gapirganda shuni ta`kidlab o`tish kerakki, tarixan davlatning ilk ko`rinishlari ham ibridoiy to`da yani oila asosida shakllangan. Ko`rinib turibdiki har bir davlatning o`zagi bu oiladir. Oila bu davlat va jamiyatning eng kichik yacheysidir. Oila bu ajdodlar va avlodlar o`rtasidagi mustahkam ko`prikdir. O`rta Osiyo xalqlarining muqaddas kitobi Avestoda ham oilaning jamiyatdagi muhim o`rni va oilaviy munosabatlarga oid ko`plab ma'lumotlarning uchrashi, xalqimizning azal-azaldan oilaga nisbatan hurmatining cheksizligidan dalolat beradi. Avestoda aytishicha Zardo`sht bo`lg`usi kelin kuyovlarga quyidagicha murojaat qiladi : “Endi men sizlarga shaxsan murojaat etaman: pandimga qulq soling va aytganlarimni xotirangizga muhrlab oling. Halollik bilan kun kechirish yo`lida g`ayrat va shijoatli bo`ling. Har biringiz yaxshi xulqingiz bilan bir-biringizga mehr qo`ying, toki muqaddas er-xotinlikni xursandlik va xushbaxtlik bilan o`tkazing”. Zardo`shtiyarda nikoh bir umrga muhrlangan, bir erkakka ikki nikoh yoki vaqtincha nikoh ravo bo`lgan emas. Eru-xotinning bir-biriga hiyonati qattiq la`natlangan<sup>2</sup>.

Ma'rifatchi olim Rizouddin ibn Faxruddinning asrimizning boshlarida yozilgan “Oila” asarida axloq, odob, oila masalasiga ko`p e'tibor qiladi. Ma'lum bo`lishicha, u ta`lim-tarbiya sohasida anchagina bosh qotirgan; uning bu asarida

---

<sup>1</sup> Mirziyoyevning SH. Janob Prezident nomli hujjatl filmbag`ishlangan interv`yusi. 2018 vil.25 iyul.

<sup>2</sup> Ҳомидий Х. “Авесто”да оила ва аёл талқини. Ҳукуқ ва бурч. № 3 2012 41-42-б

ota-onaning vazifasi, muallim burchi, ayniqsa, xotinlar vazifasi keng yoritilib, bola tarbiyasida xotinlarning o`rni muhim ekanligiga muallif katta ahamiyat beradi. Uning mulohazasiga ko`ra, yaxshi xotin bolalarini ham yaxshi tarbiyalay oladi. U: «Xotinlar birinchi navbatda murabbiyidirlar, xotinning oila tebratishi murabbiylilik hamiridan patir qilishu, uning tandirida o`sha patirni yopish degan so`z»<sup>1</sup>, deydi.

O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, “Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urfodatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo`lib etishishiga bevosita ta'sir ko`rsatadigan tarbiya o`chog`i ekanini tan olishimiz darkor”<sup>2</sup>. Ayniqsa mustaqillikdan so`ng oilaga, uning jamiyat hayotidagi o`rniga yuksak baho bergan holda, oila institutini mustahkamlash, uni qo`llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilayotgani davlatimiz siyosatining ustuvor yo`nalishlariga aylandi desak mubolag`a bo`lmaydi. Oila farovonligini yanada oshirish boradasida mamlakatimizda amalga oshirilgan ijobiy ishlar xususida fikr bildirib I.Karimov quyidagi mulohazalarni bildirib o`tadilar: “Hozirgi vaqtida mamlakatimizda yashayotgan har uchta oilaning bittasi shaxsiy engil avtomobilga ega. YUrtimizdagи har 100 ta oilaga o`rtacha 80 ta xolodilnik, 146 ta televizor to`g`ri kelmoqda. Bu esa ba`zi oilalarda ikki-uchtadan televizor borligini ko`rsatadi. SHuningdek, aholining kir yuvish mashinalari, pilesos, mikroto`lqinli pechlar, shaxsiy kompyuter va boshqa zarur vositalar bilan ta'minlanish darajasi ortib bormoqda. Respublikamizda mobil aloqa xizmatidan foydalanuvchilar soni 19 million nafarni tashkil etib, har bir oilaga o`rtacha 3 ta uyali telefon to`g`ri kelmoqda. SHuningdek, mamlakatimizda Internet abonentlari soni o`tgan yilga nisbatan 19 foizga o`sib, hozirgi

<sup>1</sup> Ризоуддин ибн Фахруддин. Оила. Т., “Мехнат”, 1991, 5-бет.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тарақоқликТ. 6. - Т.: “Ўзбекистон”, 1998

paytda 7 million 100 ming nafarni tashkil etmoqda. Bu misollar xalqimizning nafaqat hayot darajasi, balki hayot sifati ham izchil oshib borayotganini ko`rsatadi”<sup>1</sup>.

Fuqarolik jamiyatni o`zligini namoyon etishda, muayyan maqsad va ehtiyojlarga erishishda oila kabi noyob tuzilmaning ko`magidan foydalilanadi. Oila insonlarning turmush kechirish va hayot davomiyligini ta`minlash tarzidir. Oila bo`lib yashash barcha maxluqotlar orasida faqat inson zotigagina xosdir. SHu bois oila jamiyatning birinchi va birlamchi bo`g`ini xisoblanadi. SHunga ko`ra xech mubolag`asiz aytish mumkinki, oila fuqarolik jamiyatining tayanch nuqtasi, tayanch tuzilmasidir. CHunki bu muqaddas dargoxda nafaqat inson dunyoga keladi, balki u ma’nan va axloqan tarbiya topadi.

“Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o`rganish markazi 1999 yildan buyon “Jamiyat va oila: ma’naviy va axloqiy olam” mavzuida so`rov o`tkazib keladi. Tadqiqotdan ko`zlangan maqsad O`zbekiston fuqarolarining oila va oilaviy munosabatlarga qarashi, milliy qadriyatlar va mahallaning oila xayotidagi o`rni, bu borada barqaror an’analarni tiklash, aholining huquqiy savodxonligi darajasini aniqlash va o`rganishdan iboratdir. So`rovda 10 viloyat, Qoraqalpog`iston va Toshkent shaxri qamrab olindi. Unda erkaklar va ayollar, shahar va qishloq aholisi ishtirok etadi.

2002 yilgi so`rovda "Zamonaviy oila jamiyat xayotida Qanday asosiy vazifani o`taydi?" degan savolga so`ralganlarning 47,5 foizi oila jamiyat va davlat asosi, deb javob berdi. So`rov ishtirokchilarining 21,2 foizi oila yosh avlodni tarbiyalash vazifasini bajaradi, degan fikr bildirdi. 11,2 foiz so`rov ishtirokchilarining fikricha, oila mamlakatda barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlashga ko`maklashadi. 7,9 foiz odamlar esa oila vazifasini nasl qoldirishda deb biladi.

Oilaning har bir inson xayotidagi ahamiyati xaqida so`ralganlar quyidagi fikrlarni bildirdi: "u naslni davom ettirish, bolalar tug`ilishi va tarbiyasi uchun zarur" (63,2 foiz), "oila – inson Qo`rg`oni, unga Xayotda ishonch bag`ishlaydi"

---

<sup>1</sup> Каримов И.А.Амалга ошираётган ислохотларимизни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамияти куриш – ёруғ келажагимизнинг асосий омилидир. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 21 йиллигига бағишлиланган тантанали маросимдаги маъруза. Т. Халқ сўзи. 2013 йил 8 декабр

(28,8 foiz), "oila odam qariganda uni ta'minlash uchun zarur" (4,9 foiz). Ayni paytda so`ralgan poytaxtliklarning 52,6 foizi «oila ular uchun, avvalambor, hayotda ishonch bag`ishlovchi qo`rg`on ekanligini ko`proq ta'kidlashdi<sup>1</sup>.

2003 yilgi so`rovda esa «Oilaning jamiyatdagi vazifasi nimadan iborat?» degan savolga so`ralganlarning aksariyati (70,5 foizi) oila Xozirgi sharoitda, avvalo, tarbiyaviy vazifalarni bajaradi, deb javob bergen. «Jamiyatimizda inson ma'naviyatini shakllantirishga nimalar ko`proq ta'sir ko`rsatadi?» degan savolga so`rovda ishtirok etganlarning 77,1 foizi «oila», deb javob bergen. SHuningdek, ushbu sa-volga boshqa ijtimoiy institutlar orasida mahalla (43,2 foiz), ta'lim muassasalari (43,2 foiz), ijtimoiy muxit, yaqin qarindosh va do`stlari (36,9 foiz) kabi javoblar olingan. Oila qurishning ahamiyati xaqidagi savolga so`ralganlarning ko`pchiligi er-xotinning o`zaro muxabbati (52,6 foizi) va bir-biriga bo`lgan ishonchi (48,9 foizi) mustahkam oila qurishning muhim sharti, deb javob bergen. «Har uch kishidan biri (34,9 foizi) hayot qiyinchiliklariga chidash va undan qoniqish xosil qilish, 27,7 foizi esa farzandlar – oilaning mustahkamlanishiga yordam beradi, deb biladi. So`rovda ishtirok etganlarning har beshtasidan biri (20,5 foizi) uchun oilaning moddiy farovonligi muhim omil xisoblanadi»<sup>2</sup>.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida ta'kidlangan quyidagi so`zlar nihoyatda ramziy va teran ma'noga ega: "Oila jamiyatning asosiy bo`g`inidir hamda jamiyat va davlat muxofazasida bo`lish huquqiga ega"<sup>3</sup>.

Jamiyat va davlatning oila xususidagi g`amxo`rligi, avvalambor, davlat yuritayotgan kuchli ijtimoiy siyosatda namoyon bo`lmoqda. Davlat raxbarligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy isloxiy chora-tadbirlarning bosh maqsadi inson, oila manfaatlarini qanoatlantirishdan iboratdir.

Avvalo, mustaqillikdan keyingi yillari ko`pdan-ko`p savobli tadbirlar amalga oshirilgan davrlardir. Mamlakatimizda qabul qilinayotgan ijtimoiy-siyosiy soxa

<sup>1</sup> "Халқ сўзи", 2002 йил 26 сентябр.

<sup>2</sup> «Халқ сўзи», 2003 йил 22 ноябр.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т.: Ўзбекистон. 2017 й.

munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan qonunlar halqaro huquqiy andazalarga to`la-to`kis mos bo`lib, ular ruxini xayotimizga singdirish ishiga xizmat qilmoqda.

"Oila, – deydi mamlakatimiz birinchi raxbari I.A.Karimov, – Xayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urfodatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo`lib etishishiga bevosita ta'sir ko`rsatadigan tarbiya o`chog`i...<sup>1</sup>". SHu fikr-ning o`ziyoq oilani e'zozlash, uning qadr-qimmatini yuksakka ko`tarish bizning ongimizga mustahkam jo bo`lganligining yorqin dalilidir.

Oila jamiyatning boshlang`ich xujayrasini tashkil etib, unda aholining ko`payishi va yosh avlodni tarbiyalash vazifalari amalga oshiriladi.

Oilaning muhim ijtimoiy vazifalari quyidagilardan iborat:

*Birinchidan*, u jamiyatning demokratik xujayrasini tashkil etib, odamlar shu muqaddas maskanda tug`ilib, o`sib, jamiyat tarkibini tashkil etadi.

*Ikkinchidan*, oila muhim bo`g`in bo`lib, unda biz mehnat jarayonida sarf qilgan kuchlarimizni tiklash imkoniyatiga ega bo`lamiz.

*Uchinchidan*, oila muhim tarbiya o`chog`i.

Va nihoyat, *to`rtinchidan*, oila nodir ruhiy muhitdir.

Olimlarning fikricha, odamlar xayotining birdan-bir to`g`ri yo`li oilaviy hayot ekan. Aksincha, yolg`izlikda yashash turli xil falokatlarga va fojialarga sabab bo`lar ekan.

SHuning uchun, aytaylik, Amerika Qo`shma SHtatlarida qariyalar yolg`iz uyda qoldirilmaydi, ular, bolalari bo`la turib, qariyalar uylariga joylashtiriladi. Italiyalik mutaxassislarning xisob-kitoblariga qaraganda, xozirgi paytda xar besh evropalikning biri uyqusizlikdan azob chekarkan. Buning asosiy sababi yolg`izlikdir.

Ko`pchilik odamlar oilaviy xayotda yashaydilar, oila-oila bo`lib yashashni o`zlariga ma`qul ko`radilar. Buyuk Britaniyada yolg`iz onalar va yolg`iz qariyalar

---

<sup>1</sup> 1998 йил - Оила йили - 1998 - Год семи. Т., «Ўзбекистон», 1998, 9-10-бетлар.

soni esa yildan yilga ko`paymoqda. Ayni paytda mamlakatning 15 foiz aholisi yolg`izlikda umr kechiradi<sup>1</sup>.

SHu bois mamlakatimizda oxirgi yillarda oila institutini musathkamlash, uning davlat va jamiyat hayotidagi rolini tobora kuchaytirish, shuningdek oilaning jamiyatning ma`naviy-axloqiy komillikka erishishdagi ahamiyatini yuksaltirish maqsadida oilaning ham huquqiy, ham iqtisodiy asoslarini rivojlantirishga kata e'tibor qaratilmoqda. Xususan mamlakatimiz mustaqilligining 21 yilligida oilaning mustahkamlanishiga oid quyidagi ma'lumotlarni ko`rib chiqsak:

- Mustaqillik yillarida O`zbekiston iqtisodiyoti qariyb 3,7 barobar, aholi jon boshiga nisbatan real daromadlar 7 barobar, nafaqalarning o`rtacha miqdori – 9 barobar, ish haqi 18 barobar o`sdi;
- Mutaxassislar e'tirof etganidek, yanglangan iqtisodiyot va yangi hayot odamlar umrining davomiyligida ijobiy aks etdi, ularning umr ko`rish darajasi o`rtacha 7 yilga uzaydi;
- Agar 21 yil ilgari 10 xonadondan bittasida engil avtomobil bo`lgan bo`lsa, hozirda har uchinchi honadonda bittadan, ayrim honadonlarda bir nechta shaxsiy avtomashina mavjud;
- So`nggi etti yil davomida mamlakatimiz yiliga 8,2 foiz o`sishga erishmoqda. Jahonda, ayniqsa 2008 yildan buyon davom etayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida bunday ko`rsatkichlarga ega davlatlar juda kam<sup>2</sup>.
- Mustaqillik yillarida aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yunaltirilgan davlat harajatlari 5 barobarga ko`payib, xalqimiz turmush darajasi sezilarli ravishda yaxshilandi. Buning natijasida onalar o`limi 2 barobardan ko`proq, bolalar o`limi 3 barobar kamayishi, odamlarning o`rtacha umr ko`rishi 67 yoshdan 73 yoshga, jumladan, ayollarning o`rtacha umr ko`rishi 75 yoshga etganida o`z ifodasini topdi.

<sup>1</sup> Қаранг: "Оила ва жамият", 1996, 15-сон.

<sup>2</sup> Инсон манфаати, хукуқ ва еркинликларини таъминлаш, ҳаётимизнинг янада еркин ва обод бўлишига еришиш –бизнинг бош мақсадимиздир. Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 20 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузасини ўрганиш бўйича ўқув кўйланма. Муаллифлар жамоаси. Т.: “Ўқитувчи” нашриёти 2013 й. 30-б.

2014 yilda “Sog`lom bola yili”da ham davlat dasturi asosida yosh oilalarini davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash borasida keng ko`lamli ishlar amalga oshirildi. Bu borada Prezidentimiz I.A.Karimov quyidagi fikrlarni bildiradilar: “SHu bilan birga, yosh oilalarga uy-joy sotib olish, uni qurish va rekonstruktsiya qilish, uzoq muddat foydalanishga mo`ljallangan tovarlarni xarid qilish uchun qariyb 215 milliard so`mlik imtiyozli ipoteka kreditlari va 57 milliard so`mlik foizsiz qarz mablag`lari ajratildi. Ana shunday tadbirlar qatorida Kasaba uyushmalari federatsiyasi tomonidan 1 milliard 500 ming so`m qiymatidagi maishiy elektr texnika vositalari kam ta`minlangan oilalarga bepul tarqatilganini qayd etish lozim”<sup>1</sup>.

Yuqoridagi ko`rsatkichlar mamlakatimizda so`nggi yillarda oilaning mustahkamlanishi uchun kuchli poydevor yaratilganidan dalolat beradi.

## **1.2. O`zbekistonda oila institutining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari**

O`zbekiston Respublikasida oilaning muhim ijtimoiy institut sifatidagi o`rni va ahamiyati qadim-qadimdan shakllanib kelgan o`zbek halqining beqiyos ma`naviy qadriyatlariga borib taqaladi. Aynan oilaning o`zbek halqi hayotida birinchi o`rinlardan biri sifatida tan olinishi, uning jamiatning asosiy ustqurmasi sifatida e`tirof etilishi, o`zbek millatining oilaga nisbatan jamiatning muhim komponenti sifatida alohida hurmat hissini uyg`otadi. Bu borada O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini keltirib o`tish joiz: “Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, oila hayotning abadiyligini, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo`lib etishishiga bevosita ta`sir ko`rsatadigan tarbiya o`chog`i ekanini tan olishimiz darkor”<sup>2</sup>.

O`tgan asrning atoqli o`zbek pedagoglaridan biri Abdurauf Fitrat ham o`zining “Oila yoki oilani boshqarish tartiblari” asarida shunday deb yozadi:

<sup>1</sup> Каримов И.А. Мамлакатимизни демократик янгилаш ва модернизация қилишга қаратилган тараққиёт йўлимини катъият билан давом ёттириш – бош мақсадимиздир”. Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилингандигининг 22 йиллигига бағишиланган тантанали маросимдаги маъруза. Т.: Халқ сўзи. № 240. 2014 йил 6 декабр

<sup>2</sup> Каримов И.А.Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6-жилд.-Т., “Ўзбекистон”, 1998.448-б

“Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog`liqdir... Qaerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo`ladi”<sup>1</sup>.

SHu bois mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zamirida oilaviy qadriyatlarning e’tirof etilishi yuqoridagi fikrlarni isbotlaydi. Xususan oila institutining konstitutsiyaviy mustahkamlanishi ham halqimiz hayotida oilaning naqadar muhim ekanligidan dalolat beradi va oila haqida g`amxo`rlik konstitutsiyaviy yo`l bilan mustahkamlanadi.

Dastlab konstitutsiyaviy komissiya tomonidan konstitutsiyaning loyihasi ishlab chiqilayotgan pallada aynan O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan Konstitutsiyada alohida bobning oilaga ajratilishi to`g`risidagi g`oyaning o`rtaga tashlanishi va keyinchalik bu fikr mustaqil O`zbekiston konstitutsiyasida aks etishi nafaqat o`zbek konstitutsiyaviy taraqqiyotida balki jaxon konstitutsionalizmimda muhim yangilik bo`ldi desak yanglishmagan bo`lamiz. To`g`ri xorijiy mamlakatlar konstitutsiyalarining qiyosiy-huquqiy tahlili ushbu mamlakatlarda u yoki bu tarzda oilaga oid normalar mavjudligini ko`rsatsada, biroq bironqa mamlakat konstitutsiyasida aynan oilaga oid munosabatlar majmui alohida bob tarzida berilishi tajribasi yo`q.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining uchinchi bo`lim XIV bobi “Oila” deb nomlanib, unga to`rt modda – 63-66-moddalar bag`ishlangan.

“Oila jamiyatning asosiy bo`g`inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo`lish huquqiga ega.

Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi”, deyiladi Konstitutsiyaning 63-moddasida.

O`zbekistonda har bir oila va har bir insonning turmush farovonligini oshirish, fuqarolar totuvligini mustahkamlash davlat siyosati darajasiga ko`tarilgan. Birinchi Prezident I.A.Karimov bu boradagi vazifalari haqida gapirib: “Eng muhim vazifa – xalqchil, adolatparvar jamiyatni vujudga keltirish. Bu jamiyat

---

<sup>1</sup> Абдурауф Фитрат. Оила. – Т.: “Маънавият”, 1998, 8-Б.

poydevorini, eng avvalo, boy va badavlat, mehnat qadrini biladigan, ma'naviy sog`lom hamda madaniy saviyasi baland minglab va millionlab oilalar tashkil etadi"<sup>1</sup>, -deb ta'kidlaydi.

O`zbekiston Respublikasida oilaga jamiyat va davlat g`amxo`rligi kun sayin oshib bormoqda. Chunki katta-kichik jilg`alar va irmoqlardan ulkan daryo hosil bo`lgani kabi, oilalar majmuidan jamiyat paydo bo`ladi. Muayyan jamiyatning hayot tizimi, ong yuksakligi mana shu oilalar majmuining darajasiga bog`liq. SHunday ekan, jamiyatni rivojlantirish uchun barcha diqqat-e'tibor, eng avvalo, oilaga qaratilmog`i lozim. Har bir oila a'zosining jamiyatni tushunishi, hayot, mehnat, qonun va huquqni qay darajada anglashi va unga rioya qilishi jamiyat ravnaqini belgilovchi muhim omildir.

Oilaning jamiyat tomonidan muhofaza qilinishi unga nisbatan g`amxo`rlikning yangi shakli hisoblanib, bunga alohida e'tibor berish kerak.

Davlatning oila to`g`risidagi g`amxo`rligi katta hajmda uy-joy qurilishi, bolalar muassasalarining keng shahobchalarini barpo etish va rivojlantirish, maishiy xizmat, bola tug`ilganda nafaqa to`lash, ko`p bolali oilalarga nafaqalar va imtiyozlar berish, shuningdek, oilaga nafaqa va yordam berishning boshqa turlarini rivojlantirish orqali namoyon bo`lmoqda.

Oilani himoya qilishning konstitutsiyaviy qoidalari deganda, davlat organlarining onalik va bolalikni muhofaza qilish, oilani mustahkamlash, oila a'zolarining qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, oilaviy munosabatlarga mas'uliyatsizlik bilan qarashga qarshi kurashish tushuniladi. Bu tadbirlar iqtisodiy, ma'naviy va huquqiy vositalar yordamida bejariladi.

O`zbekistonda onalik va bolalikni himoya qilishga juda katta e'tibor berilmoqda. Onalik ayol kishining eng zo'r his-tuyg`ularidan biri va uning hayotidagi zo'r baxt, juda buyuk shodlik hisoblanadi. Davlat ko`p bolali, serfarzand oilalarga va bolali yolg`iz onalarga katta moddiy yordam bermoqda.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон миллий истиқолол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.Ўзбекистон, 1993, 14-Б.

Bizda bolalarning huquq va manfaatlarini himoyalashga juda katta e'tibor berilib, bu yo`lda bir qancha tadbir va choralar amalga oshirib kelinmoqda.

Ayni paytda Konstitutsiyada farzandlari voyaga etganlaridan so`ng ota-onalari oldida ma'lum majburiyatlarga ega ekanligi mustahkamlangan.

Voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar o`z ota-onalari haqida g`amxo`rlik qilishga majburdirlar.

Voyaga etgan farzandlar o`z ota-onalari to`g`risida g`amxo`rlik qilishlari lozim. Ular o`z ota-onalariga ma'naviy yordam berishga hamda ko`maklashishga majburdirlar. Ota-onalar turmushidan xabardor bo`lib, sihat-salomatligiga katta e'tibor berishlari kerak.

Bolalarning ota-onalari to`g`risida g`amxo`rlik qilish majburiyatlari ilgari ularning ahloqiy majburiyati bo`lib hisoblanadi. Mustaqil respublikamiz yangi Konstitutsiyasini qabul qilish bilan bolalarning bu majburiyati qonuniy konstitutsiyaviy majburiyatga aylanadi. Farzandlar ota-onalarini mehnatga layoqatsiz bo`lib qolganlarida, ayniqsa betob bo`lib qolganlarida ularga har xil yordam berishlari, ular nimaga muhtoj bo`lsalar, shularni muhayyo qilib turishlari lozim.

Voyaga etgan farzandlarning ota-onalari to`g`risida g`amxo`rlik qilishlari nafaqa majburiyati vujudga kelganmi yoki yo`qmi undan qat'i nazar, paydo bo`ladi. Qo`pincha ota-onalar qarilik yoki kasal bo`lgan davrlarida yaxshigina pensiya olib moddiy tomonidan yaxshi ta'minlangan bo`lsalar-da, ammo ular o`z farzandlarining ular to`g`risida g`amxo`rlik qilishlariga, ma'naviy e'tiborlariga muhtoj bo`ladilar. Aksariyat holatlarda ota-onalar bunday bolalardan nafaqa undirish haqida da'vo qilmaydilar. Ammo bolalarni muhtoj va mehnatga layoqatsiz ota-onalari to`g`risida g`amxo`rlik qilmasliklari ularni nafaqa undirish haqida sudga da'vo arizasi bilan murojaat etishga majbur etadi.

Farzandlar ota-onalari to`g`risida g`amxo`rlik qilmasalar, ularga nisbatan qonuniy kafolatlar belgilanmaydi. Biroq insofsiz, ota-onalariga nisbatan o`z farzandlik burchlarini eslaridan chiqarib qo`ygan bolalarga nisbatan ular to`g`risida

sud xususiy ajrim chiqarib, ularning yashash yoki ishlash joylarida ma’naVIy qiyofasini muhokama qilishlikka yuborishi mumkin.

Davlat tomonidan oilaga kun sayin g`amxo`rlik qilish unga har taraflama moddiy yordam berish insonparvar demokratik huquqiy davlatning muhim vazifalaridan biridir. Respublikamiz Prezidentining «Qo`p bolali oilalarga nafaqa miqdorini ko`paytirish to`g`risida»gi 1990 yil birinchi farmoni oilaning davlat muhofazasida ekanligidan dalolatdir.

Unda ko`p bolali oilalarning moddiy ahvolini, yosh avlodning o`sish sharoitlarini yaxshilash maqsadida onalarga to`lanadigan oylik nafaqa ikki martaga ko`paytirildi. Mazkur farmon o`zbek xalqining bolajonlik tabiatini ko`rsatadi.

Keyingi yillarda ham Respublika Prezidentining oilaga aloqador bir qator farmonlari qabul qilindi.

Mustaqillik yillarida 2,5 million oila birinchi marta er uchastkalari oldilar va o`z er uchastkalarini kengaytirdilar.

O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 63-moddasining ikkinchi qismida «Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi» deyilgan. Zero, nikoh oila poydevoridir. O`zbekiston Respublikasining amaldagi Oila kodeksi 1998 yil 30 aprel kuni birinchi chaqiriq O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o`n birinchi sessiyasida qabul qilindi va 1 sentyabrdan e’tiboran amalga kiritildi. Ushbu kodeks 8 bo`lim, 30 bob, 238 moddadan iborat.

Davlatimizda oila to`g`risidagi qonun xujjatlari O`zbekiston Respublikasi Oila kodeksidan hamda unga muvofiq qabul qilinadigan boshqa qonun xujjatlaridan iborat. Oila to`g`risidagi qonun xujjatlarining vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o`zaro muxabbat, ishonch va hurmat, hamjixatlik bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a’zolarining mas’ulligi hissi asosida kurishgan, biron-bir shaxsning oila masalalariga o`zboshimchalik bilan aralashishga yo`l qo`ymaslikdan, oila a’zolari o`z

huquqlarini to`sqiniksiz amalga oshirishini hamda bu huquqdarnint himoya qilinishini ta'minlashdan iboratdir<sup>1</sup>.

Oila kodeksi 8 ta bo`lim va 238 ta moddadan iborat.

Oila kodeksi qo`yidagi vazifalarni o`z oldiga qo`yadi:

- xalqaro huquqiy normalarga asoslanib, tegishli milliy qonunlar yordamida oilani mustahkamlash, bolalar manfaatini himoya qilish;

- umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida oilalarning barqarorligini ta'minlash tizimini barpo etish;

- mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining xozirgi davrida oilaga bo`lgan e'tiborni kuchaytirish;

- xonadonning serfayzligi, oila hayotining ravnaqi, ma'naviyatining yuksalishi, turmushimizing farovonligi asosan ayollarga bog`liqligini inobatga olib, ayollarning oiladagi mavqeiga, huquqiy xolatiga aloxida e'tibor berish va bunda har bir oilaning o`ziga xos xususiyatini, millatimizning o`ziga xos jihatlarini e'tiborga olish;

- sog`lom avlodni vujudga keltirishda milliy qadriyatlarimizga, xalqimizning azaliy an'analariga, islomiy axloqiy-ma'naviy aqidalarga amal qilgan holda ish yuritish;

- bo`lajak onalarni tarbiyalashda milliy mafkura, urf-odat va an'analarini kengroq qo`llash;

- sog`lom avlod xaqida bola tug`ilmasdan oldin g`amxo`rlik qilish;

- oila qonunlarida belgilangan nikox tuzish tartibi va shartlarini, oilada er-xotin. ota-onalar bilan bolalar, oilaning boshqa a'zolari o`rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlarni, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, bolani tarbiyaga

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси. Ўзбекистон Республикасининг 1998 й. 30 апрелдаги Қонуни билан тасдиқланган. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1998 й. 30 апрелдаги Қарорига мувофиқ 1 сентябрдан еътиборан амалга киритилган // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

olish tufayli kelib chiqadigan huquqiy munosabatlarni tartibga solishga e'tiborni qaratish<sup>1</sup>.

Oila kodeksini tayyorlashda, unga ayrim huquqiy normalarni kiritishda quyidagi nazariy qoidalarga asoslanilgan:

- oila huquqiga xos demokratik asoslarga tobora kat'iy amal qilish;
- ayollar va erkaklarning oilada teng huquqliligin ta'minlash;
- oilaviy huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi sub'ektlarning shaxsiy va mulkiy huquqdari sud tomonidan himoya qilinishini yanada kengaytirish;
- ota, ona va bolalar huquqlarining, oila huquqining tartibga solinishini takomillashtirish;
- oila a'zolarining shaxsiy va mulkiy huquq va majburiyatlarini yanada to`la va aniq belgilash;
- oila huquqiy normalari fakat katta yoshdagi shaxslarginaa emas, balki kichik yoshdagi oila a'zolariga ham tarbiyaviy ta'sir ko`rsatishini ta'minlash;
- oila qonunlarida milliy va ma'naviy qadriyatlarga, maxalliy sharoitdan kelib chikadigan eng yaxshi udum va an'analarga aloxida e'tibor berish va boshqalar<sup>2</sup>.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998 yil 30 apreldagi "O`zbekiston Respublikasining Oila kodeksini amalga kiritish tartibi to`g`risida"<sup>3</sup>gi qarorini bajarish yuzasidan Vazirlar Maxkamasi Fuqarolik xolati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari; O`zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to`g`risidagi Nizom; voyaga etmagan bolalarmi farzandlikka va tarbiyaga olish (patronat) to`g`risidagi Nizomni tasdiqladi<sup>3</sup>. Xukumatimiz, shuningdeq Oila kodeksining 17-moddasini bajarish yuzasidan hamda sog`lom oilani shakllantirish, irsiyatga bog`liq va tug`ma kasalliklarga chalingan bolalar tug`ilishining oldini olish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida "Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko`rikdan

<sup>1</sup> Ўзбекистон юридик енциклопедияси. — Тошкент: Адолат, 2009. — Б.592-593.

<sup>2</sup> Оила фаровонлиги — жамиятни ривожлантириш асоси. 2008 й. 4 феврал // Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги (ЎЗА)нинг вебсайти — [www.aza.uz](http://www.aza.uz).

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 1999 й. 12 апрел "Ўзбекистон Республикасининг Оила кодексини амалга ошириш учун зарур бўлган меъёрий хужжатларни тасдиқлаш тўғрисида"ги қарори // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

o`tkazish to`g`risida"gi Nizomni tasdiqladi va u 2004 yil 1 yanvardan boshlab amalga kiritildi<sup>1</sup>.

O`zbekistonda sog`lom oila qurish uchun barcha sharoit yaratilgan. Jumladan, nikoxdan oldin yoshlarni tibbiy ko`rikdan o`tkazish buyicha yaratilgan qonunchilik talablari amalda qo`llanilmoqda. Sunggi yillarda o`tkazilgan so`rovlar aksariyat fuqarolarimiz O`zbekiston Respublikasi Oila kodeksida belgilangan mazkur normani qo`llab-quvvatlashini ko`rsatdi. Ayni paytda kelin-kuyovlar nikoxdan oldin tibbiy ko`rikdan o`tishi va o`z salomatliklari to`g`risida bir-birini xabardor qilishi zarur, deb xisoblaydiganlar soni ortib bormoqda. Bu hamyurtlarimizning kelajak avlod oldidagi mas`uliyat xissi oshayotganidan dalolatdir. SHuningdek so`rov qatnashchilari oila va nikoh masalalari buyicha aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish zarur, degan fikrni bildirdilar. SHuningdek turmush qurayotgan yoshlар Oila kodeksi bilan tanishgan bo`lishi shartligi belgilandi<sup>2</sup>.

Qonun fuqarolarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini himoyalashni hamda davlat va jamiyat manfaatlarini xisobga olgan hamda, fuqarolar hayotidagi muhim voqealar — tug`ilish, nikox tuzish, o`lim va insonning muhim sub`ektiv huquqlari va majburiyatlarning yuzaga kelishi, o`zgarishi va to`xtatishiga sabab bo`ladigan boshqa holatlarning vakolatli organlarda qayd etilishini belgilaydi. Fuqarolik holatini qayd etish fuqarolarning huquq va burchlarini paydo bo`lishiga sabab bo`lib xizmat qiluvchi xujjat (gerbli guvoxnama) berish uchun asos bo`ladi. Fuqarolik xolati dalolatnomalarini qayd etishning ahamiyati shundaki, unga asosan Fuqarolik xolati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan berilgan guvoxnama, unda ko`rsatilgan faktning to`g`riligini tasdiqdovchi shaksiz dalil xisoblanadi<sup>3</sup>.

Vasiy va homiyning xatti-harakatlari ustidan homiyning turar joyidagi tegishli vasiylik va homiylik organiga yoki sudga homiylikdagi shaxsning o`zi, davlat muassasalari, jamoat birlashmalari va boshqa fuqarolar tomonidan shikoyat

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2003 й. 25 август "Никохланувчи шахсларни тиббий кўрикдан ўтказиш тутирисидаги Низомни" тасдиқлаш хақида Қарори // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

<sup>2</sup> Мустаҳкам оила — баркарор жамият асоси. 2011 й. 6 май // [www.yza.uz](http://www.yza.uz).

<sup>3</sup> Фуқаролик холати далолатномаларини қайд этиш қоидалари. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 1999 й. 12 апрелдаги Қарорига илова // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

qilinishi mumkin. Vasiylik va homiylikka oid ishlarni ko`rib chiqishda vasiylik va homiylik organi vasiy yoki homiy bo`lishni xoxlovchi shaxslarni, vasiy va homiylarni, ariza beruvchilarni, manfaatdor va ishga aloqador shaxslar (qarindoshlar, jamoat birlashmalari vakillari, ekspertlar, guvoxlar va boshqalar)ni hamda ayrim xollarda vasiylikka yoki homiylikka muxtoj shaxslarni taklif qilishi mumkin<sup>1</sup>.

### **1.3. Xorijiy mamlakatlarda oila institutini konstitutsiyaviy-huquqiy mustahkamlanishi masalalari**

Oila – bu inson jamiyatning a’zosi sifatida qayta talqin etiladigan ijtimoiy tuzilmadir. Aynan shu oilada inson dunyoni his qiladi, tushunadi, shakllanadi, uning ijtimoiy sifatlari vujudga keladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi 1994 yildan e’tiboran xar yili 15 may kunini Halqaro oila kuni sifatida nishonlashga qaror qilgani bejiz emas. SHuningdek, 1993 yildan buyon Vena, Qoxira, Kopengagen, Pekin va dunyoning boshqa shaxarlarida bo`lib o`tgan halqaro anjumanlar kun tartibiga oila masalasining maxsus kiritilishida ham katta ma’no bor. Umuman olganda, xar yili belgilanayotgan va amalga oshirilayotgan xayrli ishlarning barchasida oila va uning mustahkamligi muammosi umuminsoniy vazifa cihatida e’tirof etib kelinmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1948 yil 10 dekabrdagi qabil qilingan "Inson huquqlari umumjaxon deklaratsiyasi"ning 16-moddasida shunday deyiladi:

1. Balog`atga etgan erkaklar va ayollar irqi, millati va diniga qarab biror bir cheklashsiz nikoxdan o`tish va oila qurish huquqiga egadirlar. Ular nikoxdan o`tayotganda ham, nikoxda bo`lgan vaqtida ham va nikox bekor qilinayotganida ham bir xil xuquqlardan foydalanadilar.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасида васийлик ва ҳомийлик тўғрисида Низом. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 1999 й. 12 апрелдаги Қарорига илова // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

2. Nikox, nikoxdan o`tayotgan ikkala tomonning xoxishi va batamom roziligi bilangina tuzilishi mumkin.

3. Oila jamiyatning tabiiy va asosiy xujayrasidir va u jamiyat, davlat tomonidan muxofaza etilish xuquqiga egadir<sup>1</sup>.

Yaponiya Konstitutsiyasining 24-moddasida belgilanishicha, nikoh faqat ikkala tomonning o`zaro roziligiga asoslanadi va er-xotinning teng huquqliligiga asoslangan o`zaro hamkorlik negizida vujudga keladi. Oila va nikohga tegishli barcha masalalar jinslarning tengligi va shaxsiy qadr-qimmati tamoyilidan kelib chiqqan holda qonun bilan tartibga solinishi lozim. 1975 yilda qabul qilingan Gretsya Konstitutsiyasining 21-moddasi, 1-qismiga muvofiq, “oila millatni saqlab qolish va rivojlantirishning asosi, nikoh ham xuddi shunday, onalik va bolalik davlat himoyasi ostidadir”. Vengriya Konstitutsiyasining 15-§ Vengriya Respublikasi oila va nikoh institutining muhofaza qiladi deb mustahkamlangan<sup>2</sup>. Bolgariya Konstitutsiyasida ham huddi shunga o`xhash konstitutsiyaviy normaning o`rnatilganligini kuzatish mumkin. Xususan Bolgariya Konstitutsiyasining 14-moddasida “Oila, onalik va bolalik davlat va jamiyat himoyasi ostidadir” degan qoida o`rnatilgan<sup>3</sup>.

Ba`zi konstitutsiyalarda farzandlarning huquq va manfaatlari alohida muhofaza qilinadi. Meksika Konstitutsiyasining 4-moddasi, 5-qismida shunday deyiladi: “Ota-onalarning burchi – bolalarning aqliy va jismoniy rivojlanishiga bo`lgan ehtiyojlarini qondirilishiga qat’iy amal qilishdir. Qonun bolalarmi muhofaza qilish uchun mablag`lar belgilaydi va ular davlat muassasalari orqali etkazib beriladi”. Italiya Konstitutsiyasi ham nikohsiz tug`ilgan bolalar muammosiga diqqat e’tiborni qaratadi: 30-moddaning 3-4-qismlarida qonun chiqaruvchilar zimmasiga, nikohdan tashqari tug`ilgan bolalar uchun qonuniy tuzilgan oilalarda tug`ilgan bolalar ega bo`lgan huquqlarga mos holda barcha

<sup>1</sup> Инсон хукуклари тўғрисида халкаро билл. Т., «Адолат», 1992, 14-бет.

<sup>2</sup> Конституция Венгерской Республики [ктп://www.auditoriym.ru/bookc/116/Кунгарй/01.ктмл](http://www.auditoriym.ru/bookc/116/Кунгарй/01.ктмл)

<sup>3</sup> Конституция Республики Болгарии [кмп://www.auditoriym.ru/bookc/116/Булгариа/01.ктмл](http://www.auditoriym.ru/bookc/116/Булгариа/01.ктмл)  
(Обнародована в "Държавен вестник", бр.56 от 13 юли 1991 г.)

yuridik (huquqiy) va ijtimoiy (sotsial) muhofazasini ta'minlash va otalikni belgilash uchun qoida va chegaralarni o`rnatishlikni belgilaydi. Azarbayjon Konstitutsiyasi 17-moddasi 2- qismida farzandlar xaqida g`amxo'rlik va ularni tarbiya qilish ota-onaning burchidir hamda davlat ushbu burchni bajarilishi ustidan nazorat o`rnatadi deyilgan<sup>1</sup>.

Polsha Konstitutsiyasining 72-moddasi yangi tug'ilgan bola huquqlarini tartibga soladi va bolalar huquqi bo'yicha vakolatli institut (muassasa)ni tashkil etishni ko'zda tutadi. Va nihoyat, 1991 yildagi Slovakiya Konstitutsiyasining 56-moddasida bolalarning alohida muhofaza va g`amxo'rlikdan to`la foydalanishlari belgilab qo`yiladi. Bolalar yoshlarining ulg`ayishi va balog`atga etishlari munosabati bilan asosiy inson huquqlari va erkinliklaridan foydalanadilar. Bolalarga iqtisodiy, ijtimoiy, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va boshqa turli jihatdan ezish (ekspluatatsiya) va suiiste'molliklardan alohida muhofaza qilish kafolatlanadi. Davlat kattalarning g`amxo'rligi va yordamidan mahrum bo`lgan bolalar va balog`atga etmagan o`smirlar uchun ham alohida maxsus himoyani kafolatlaydi.

Xitoydagagi murakkab demografik vaziyat hozirda amalda bo`lgan konstitutsiya tuzuvchilarni quyidagi me'yorlarni konstitutsiyaga kiritishga undadi: "Davlat aholi o'sishini iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot rejalariga muvofiqlashtirish maqsadida tug'ilishni rejalashtirishni joriy qiladi" (25-modda); "Er-xotinlar tug'ilishni rejalashtirishga majburdirlar" (49-moddaning 2-qismi).

SHuning bilan bir vaqtida, jamiyatimizda axloq me'yorlarining cho'kishini hisobotga olib, o'sha XXR Konstitutsiyasining 49-moddasidagi uchinchi va to`rtinchi qismlardagi quyidagi holatlarga e'tibor qaratmaslik mumkin emas:

"Ota-onalar balog`atga etmagan bolalarni moddiy ta'minlash va tarbiyalashga, balog`atga etgan farzandlarni esa ota-onalarini moddiy saqlash (ta'minlash) va ularga yordam berish (qo'llab-quvvatlash)ga majburdirlar.

---

<sup>1</sup> Каранг: Челябинск, [кр-инфinitий@ mail.ru](mailto:кр-инфinitий@ mail.ru)

Nikoh erkinligini buzish (unga xilof ish tutish) keksalar, ayollar va bolalarga rahmsizlarcha munosabatda bo`lish taqiqlanadi”.

YUqoridagilar bir qator xorijiy mamlakatlarda oilaviy munosabatlarni tartibga soluvchi alohida qonun xujjatlari mavjud bo`lib, aksariyat davlatlarda ular kodekslashtirilgan ya’ni yagona oila kodeksi shaklida umumlashtirilgan. Biroq xozirgi kunda g`arb davlatlarida (Xususan Buyuk Britaniya, Frantsiya) bir jinsdagi shaxslarning oila qurishga oid huquqlarini qonuniy mustahkamlanishi oila institutiga putur etishi bilan bir qatorda oilaviy qadriyatlarning poymol etilayotganligidan dalolat bermoqda. SHu bilan bir qatorda g`arb davlatlarida tug`ilishning pasayib ketishi demografik portlash darajasidagi katta havfga aylanib borayotganligi ushbu mamlakatlardagi eng global muammo tusiga aylanib bormoqda. SHu bois Rossiya Federatsiyasida birinchi va ikkinchi farzandlar uchun “onalik kapitallari”, “yosh oilalarga uy-joy uchun imtiyozli kreditlar” kabi imtiyozlarning yaratilishi aynan yuqoridagi muammolarni oldini olish borasidagi ishlardir. SHu bilan bir qatorda g`arb davlatlarida nikox ajrimlari sonining o`sib borayotganligi va bu jamiyat uchun tabiiy holga aylanib qolayotganligi g`arb dunyosida oila instituti inqirozga yuz tutayotganligidan dalolat bermoqda. “Liverjournal” internet jurnalining yozishicha, Rossiyada 1990 yildan 2010 yilgacha qurilgan har uch oiladan ikkitasi buzilgan. “Izvestiya” gazetasi “Har 1000 oilaning 800 tasi buzilmoqda”, deb ayuhannos solmoqda<sup>1</sup>. Statistika 1997-2000 yillar orasida dunyo bo`yicha eng ko`p ajrim AQSHda qayd qilinganligini ma’lum qildi<sup>2</sup>. YUqoridagilardan ko`rinib turibdiki bugungi kunda rivojlangan xorijiy davlatlar konstitutsiyalari oilani konstitutsiyaviy muhofaza qilish bo`yicha qoidalarni qanchalik kiritmasin globallashuv jarayonida ayniqsa g`arb davlatlarida oilaviy qadriyatlarning poymol etilayotganligi va yo`qolib ketayotganligini ko`rshimiz mumkin.

---

<sup>1</sup> Куронов М, Базаров О. Оилам мустаҳкам бўлсин десангиз... Республика Маънавият ва маърифат кенгаси Миллий ғоя ва мафкура илмий-амалий маркази.-Т.: “Сано-стандарт” нашриёти. 2012.19-б

<sup>2</sup> Куронов М, Базаров О. Оилам мустаҳкам бўлсин десангиз... ...Республика Маънавият ва маърифат кенгаси Миллий ғоя ва мафкура илмий-амалий маркази.-Т.: “Сано-стандарт” нашриёти. 2012.19-б

## **II BOB. O`zbekistonda oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solinishi va oila qonunchiligining takomillashuvi masalalari**

### **2.1. O`zbekiston Respublikasida oilani ijtimoiy va huquqiy muhofaza qilishning qonunchilik asoslari**

Aytish kerakki, mamlakatimizda huquqiy-demokratik davlat va adolatli fuqarlik jamiyatni barpo etish yulida amalga oshirilayotgan izchil islodotlar jarayonida jamiyatning qo`yi bunshi oilaning huquqiy asoslari ham tobora mustahkamlanmoqda. Zero, ma`naviy etuk jismonan sog`lom avlodni tarbiyalashda oilaning o`rni beqiyosdir. Davlatimiz raxbari e'tirof etganidek bu yopyg` olamda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, hayot abadiyligi, bebaxr ne'mat bo`lmish farzand bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha kelajagini o`ylab, ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi.

YUrtimizda mustaqillikning o`tgan davrda oilani ijtimoiy va huquqiy himoya qilish, oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslarini takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Uning jamiyatdagi o`rni va mavqeini yanada oshirish eng muhim vazifa sifatida izchil ruyobga chiqarilmoqda.

O`ziga xos milliy davlatchilik tariximiz, xalqimizning azaliy qadriyat va an`analari e'tiborga olinib, Konstitutsiyamizga aloxida “Oila” bobi kiritildi<sup>1</sup>.

Mazkur bobda oila jamiyatning asosiy bo`g`ini ekanligi hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo`lish huquqiga egaligi mustahkamlab qo`yilgan. SHuningdek unda nikox tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliliga asoslanishi, ota-onalar o`z farzandlarini voyaga etgunlariga kadar boqish va tarbiyalash, o`z navbatida, voyaga etgan, mexnagga layoqatli farzandlar o`z ota-onalari haqida g`amxo`rlik qilishga majburliklari, farzandlar, ota-onalarining nasl-nasabi va fuqarolik xolatidan qatiy nazar, qonun oldida tengligi, onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi o`z ifodasini topgan. Mamlakatimizda ushbu Konstitutsiyaviy qoidani hayotga tatbiq eta borib, o`tgan davr mobaynida Oila kodeksi, oila bilan bog`liq 50 ga yaqin qonun, Prezidentimizning 20 ga

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т.: Ўзбекистон. 2017 й.

yaqin farmon, qaror va farmoyishlari, xukumatning 70 dan ortiq qaror va farmoyishlari qabul qilindi. Ta'kidlash lozimki oilaga bag`ishlangan alohida bobning Konstitutsiyaga kiritilishi bevosita Prezidentimizning tashabbuslari bilan

Prezidentimizning 2004 yil 25 maydagি farmoniga asosan Oilada sog`lom ma'naviy-axloqiy muhit barpo etishda maxalla va xotin-qizlar tashkilotlarining rolini oshirish buyicha bir qator chora-tadbirlar belgilandi. Maxallalarda faoliyat yuritayoggan xotin-qizlar qo`mitalari, yarashtirish komissiyasi, daniy ma'rifat va axloqiy tarbiya masalalari buyicha maslahatchilar faoliyatini rivojlantirilganligi, ularning sog`lom oilani shakllantirish, oilaviy masalalarga oid qonun me'yorlarini tushuntirish va ularga rioya qilish buyicha targ`ibot ishlarini amalga oshirayotgani natijasida oilaviy kelishmovchiliklarni mahalla doirasida, ko`pni ko`rgan keksalar, faollar yordamida, ortiqcha rasmiyatichilikka yul qo`ymay xal etish orqali jamiyat hayotining ustuni tutgan oilani mustahkamlash odati qayta tiklandi. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2012 yilning yurtimizda «Mustahkam oila yili» deb e'lon qilinishi, azal-azaldan xalqimiz uchun muqaddas bo`lgan oilani xalqimizning tayanchi va suyanchi, jamiyatning hal qiluvchi asosiy bo`g`ini, deb e'tirof etish zamirida, xech shubxasiz, juda katta ma'no-mazmun mujassam. Bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko`tarish «Oila sog`lom ekan jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan mamlakat barqarordir», degan ezgu tamoyilning xayotiy ifodasini to`liq ruyobga chiqarishga zamin yaratadi. Bulardan ko`zlangan maqsad esa, nafaqat baxtli va farovon turmush kechirish, balki ertangi kun egalarini komil inson qilib tarbiyalashdir. Zero, barkamol avlod xalqimizning mustaqillik tufayli ruyobga chiqayotgan eng katta orzusi. Istiqlol farzandlari bugun ilm-fan, sport, san'at, ma'naviyat va ma'rifat, tadbirkorlik kabi soxalarda ulkan muvaffaqiyatlarni qo`lga kiritmoqda. O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini qabul qilinganligining 21 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimda so`zlagan nutqida sog`lom bolani sog`lom oilada shakllantirish masalalariga to`xtalib quyidagilarni ta'kidlab o`tadilar: “Sog`lom bolaning dunyoga kelishi, baquvvat bo`lib o`sib-ulg`ayishi ko`pgina talab va

omillarga bog`liq ekanini hammamiz yaxshi tushunamiz. Lekin ular orasida shunday o`ta muhim, hal qiluvchi mezonlar borki, bu haqda alohida to`xtalishni o`rinli, deb bilaman.

Birinchidan, sog`lom bola - avvalo, sog`lom va ahil oilaning mevasidir.

Biz oilani hayot davomiyligini ta`minlaydigan, kelajak nasllar taqdiriga kuchli ta`sir ko`rsatadigan tarbiya maskani sifatida qabul qilamiz. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, odamiylik, mehr-oqibat, o`z Vataniga, xalqiga sadoqatli bo`lish kabi olivjanob fazilatlar aynan oila muhitida shakllanadi”<sup>1</sup>.

SHu o`rinda qayd etish kerakki, inson ongi, harakteridagi eng yaxshi fazilatlar, dunyoqarashini belgilaydigan ma`naviy mezonlar, avvalo, oila bag`rida kurtak yozadi. Har bir bolaning ertaga qanday inson bo`lib voyaga etishi, iqtidorining shakllanishi, nimalarga qiziqishi uning qanday oilada tarbiya topganiga ham borliq. SHu bois ota-bobolarimiz oilaviy tarbiyaga g`oyat dolzarb va nozik masala sifatida aloxida e`tibor qaratgan.

Gap ertangi kunimizning egalari unib, o`sib kelayotgan yosh avlod xaqida borarkan, shuni ta`kidlash joizki, mamlakatimiz aholisining 40 foizini 18 yoshgacha bo`lganlar, 64 foizini esa, 30 yoshgacha bo`lganlar tashkil etadi.

SHuningdek 2011 yilda mamlakatimizda 627 ming 421 nafar farzand dunyoga kelgan. 288 ming 39 ta yanga oila tashkil topgan<sup>2</sup>. Binobarin, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan 2012 yilning «Mustahkam oila yili» deb e`lon qilinish yurtimizda jamiyatning asosi bo`lmish oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, jismonan sog`lom, ma`naviy etuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini oshirish va shakllantirishga qaratilgan deb aytsak mubolag`a bo`lmaydi.

SHuni qayd etish joizki, oilada sog`lom muhitni yaratish, oila a`zolarining salomatligini mustahkamlashga qaratilayotgan e`tibor ham bu xayrli ishlarning uzviy bir bo`lagi xisoblanadi. Zotan, “Sog`lom ona – sog`lom bola»

<sup>1</sup> Каримов И.А.Амалга ошираётган ислоҳотларимизни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамияти қуриш – ёргуғ келажагимизнинг асосий омилидир. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 21 йилигига бағишлиланган тантанали маросимдаги маъруза. Т. Халқ сўзи. 2013 йил 8 декабр

<sup>2</sup> Мустафоев Б. Мустахкам оила –жамият баркарорлигининг асоси Ҳукуқ ва бурч №4 2012 Б.3

kontseptsiyasining mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilishi natijasida bugun O`zbekiston dunyodagi bolalar salomatligiga eng g`amxo`r bo`lgan etakchi mamlakatlar safidan joy olgan.

Poytaxtimizda bo`lib o`tgan «O`zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli: «Sog`lom ona-sog`lom farzand» mavzuidagi xalqaro simpoziumda ham oilalarda sog`lom muhitni yaratish, onalar salomatligini saqlashning yuksak natijalari e`tirof etilgani buning amaliy isboti bo`ldi.

Ma'lumki, oilaning mustahkamligini ta'minlashda uning farovonligini oshirish muhim o`rin tutadi. O`tgan yillar davomida Prezidentimizning fuqarolar daromadini ko`paytirish, yosh oilalarni uy-joy bilan ta'minlash, tadbirkorlik kasanachilik xunarmandchilik va oilaviy biznesni rivojlantirishga qaratilgan farmon va qarorlari qabul qilindi. maqsadli davlat dasturlari hayotga tatbik etildi. Odamlar xalol yuz bilan daromad olishi, oilasining to`kinliga, farovonligini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi.

SHu ma'noda mustaqillik yillarida mamlakatimizda 3,3 million oila birinchi marta er uchastkalariga ega bo`lgani, tomorqa uchastkalarining o`rgacha xajmi 20 sotixdan ortgani muhim ijtimoiy voqeа sanaladi.

Bundan tashqari, Prezidentimizning tashabbusi bilan 1998 yilnpng «Oila yili» deb e`lon qilinishi va oila manfaatlari uchun barcha manbalar bo`yicha 144.8 milliard so`m mablag` ajratilib, ushbu mablag`larning deyarli yarmi davlat budgetidan qoplangani ham ayni shu maqsadga xizmat qildi.

Davlatimiz raxbari tomonidan taqdim etilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi»da bugungi kunda kichik biznes va tadbirkorlikni kengaytirish uchun biznesning yangi tashkiliy-huquqiy shakli sifatida oilaviy biznesni qonuniy belgilab qo`yish vaqtি kelganligi alovida ta'kidlangan edi. SHuningdek mamlakatimizda biznesni tashkil qilishning ushbu shakli biznesni yuritishda yuzaga kelgan milliy an'analarimizga, xo`jalik yuritish faoliyatining mavjud xolatiga to`la mos kelishi, bunday biznesni tashkil qilishning qonunchilik bazasi

yaratilsa, oilaviy biznesning huquqiy kafolatlarini kuchaytirish, iktisodiyotning turli soxalarida uning jadal va keng rivojlanishiga, yangi ish o`rinlarining ochilishi uchun sharoit tug`ilishi qayd etilgandi.

O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan «Oilaviy tadbirkorlik to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi qonuni ma`qullanganligi bu borada muhim qadam bo`ldi. Zero, bu qonun mamlakatimizda oilalar farovonligi va barqarorligiga, ularning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Ushbu yangi qonunning asosiy maqsadi oilaviy tadbirkorlik soxasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo`lib, unga ko`ra, oilaviy tadbirkor oilaviy korxona tomonidan amalga oshiriladigan tavakkal qilib va mulkiy javobgarliga ostida daromad olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat ekanligi, oilaviy tadbirkorlik o`z ishtirokchilarining ixtiyoriyligiga asoslanishiga belgilab qo`yildi.

Oilaviy korxonaga kichik tadbirkorlik sub`ekti maqomi berilishi u to`liq firma nomiga ega bo`lishi, ularning iqtisodiyotda teng huquq asosida erkin faoliyat yuritishiga keng yul ochadi.

Oilaviy korxona faoliyati erkinligining kafolatlariga qonunda keng o`rin berilgan. Undagi me`yorlarga ko`ra, davlat oilaviy korxonaning huquqlariga rioya etilishi va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini kafolatlaydi, davlat organlari uni rivojlantirish va mustahkamlashga ko`maklashadi. SHu bilan birga, oilaviy korxona qonun xujjalari muvofiq har qanday faoliyat turi bilan shug`ullanishi mumkinligi, bitimlar tuzishda erkinligi, faoliyatini amalga oshirishida davlat organlari va mansabdor shaxslarning aralashuviga yul qo`yilmasligi qatiy belgilab qo`yilgan. SHuningdek oilaviy korxonaga soliq solish xususiyatlari, faoliyatini tekshirishlarning cheklanishi, kommunal infratuzilma ob`ektlaridan foydalanishini ta`minlash, bank xizmati ko`rsatish va kredit berishning huquqiy asoslari ham qonunda aloxida moddalarda ko`rsatib o`tilgan. Bularning barchasi jamiyatimiz tayanchi bo`lgan oilalarni iqtisodiy jixatdan mustaxkamlashda muhim o`rin tutadi. 2012 yil 27 fevraldaggi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining

«Mustaxkam oila yili» Davlat dasturi to`g`risida»gi qarorida kelgusida amalga oshiriladigan eng muhim ustuvor yo`nalishlar belgilab berildi. Jumladan, Prezidentimiz qarorida bugungi kun talablarini xisobga olgan holda qonunchilik va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, amaldagi qonun xujjatlarida oila institutini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan zarur o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish, yangi qonunlar, qoida va normalarni ishlab chiqish, bu masalaga jamiyatimiz e`tiborini yanada kuchaytirish; yosh oilalarga e`tibor va g`amxo`rlikni kuchaytirish, ularni huquqiy va ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash, moddiy va ma'naviy jixatdan keng qo`llab-quvvatlash, shu jumladan, kulay va shinam uy-joy bilan ta'minlash, zarur imtiyoz va afzalliklar berish; jamiyatimiz va kundalik xayotimizda maxalla institutining rolini yanada kuchaytirish va maqomini oshirish, «Mustahkam oila yili» maqsad va vazifalarini hayotga tatbiq etishda maxalla va fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari ahamiyatini, yosh oilalarni qo`llab-quvvatlash hamda shakllantirishda ularning ta`sirini kuchaytirish, yosh oilalarga zarur ko`mak va yordam berish; oila, birinchi navbatda, exdiyojmand oilalarning muammolarini xal etishda davlat va jamiyat tomonidan g`amxurlikni yanada kuchaytirish, ularga moddiy yordam ko`rsatish va farzandlarni tarbiyalashda ijtimoiy qo`llab-quvvatlash, munosib ijtimoiy-maishiy sharoitlar yaratish, bunda oilani mustahkamlashda asosiy yukni o`z elkasiga olgan ayollarga alovida e`tibor qaratish; “Sog`lom ona – sog`lom bola» tamoyiliga muvofiq oila salomatligini, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish; jamiyatimizning ma'naviy negizlarini yanada rivojlantirish, *azaliy* milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va mustahkamlash, jamiyatimizda yuksak ma'naviy muhitni keng qaror toptirish, milliy mentaliteshmizga mutlaqo yet bo`lgan va kuchayib borayotgan turli xil zararli ta`sirlarga karshi turishda oilaning o`rni va ahamiyatini oshirish lozimligi ko`rsatib o`tilgan.

Aytish kerakki, «Mustahkam oila yili» Davlat dasgurida belgilangan vazifalarini amalga oshirish madsadida 1 trln. 478 mlrd. 700 mln. so`m va 114 mln.

AQSH dollari miqdorida mablag` sarflanishi ko`zda tutilgani ham bu boradaga ishlar ko`lami nechog`lik keng ekanini ko`rsatadi.

O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov shu munosabat bilan «Yangi yilga mana shunday nom berishimiz, azal-azaldan halqimiz uchun muqaddas bo`lmish oilani hayotimiz tayanchi va suyanchi, jamiyatimizning hal qiluvchi asosiy bo`g`ini deb qabul qilishimiz zamirida, xech shubxasiz, juda katta ma`no-mohiyat mujassam. CHunki, oila sog`lom ekan — jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan — mamlakat barqapop» deb uqtirgan edi.

Mamlakatda inson, uning manfaatlariga tizimli va keng yunaltirilgan keng ko`lamli islohotlarni amalga oshirish jarayonida ijtimoiy soxada salmoqli natijalarga erishildi. Mustaqillik yillarida aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yunaltirilgan davlat harajatlari 5 barobarga ko`payib, halqdmiz turmush darajasi sezilarli ravishda yaxshilandi. Buning natijasida onalar o`limi 2 barobardan ko`proq, bolalar o`limi 3 barobar kamayishi, odamlarning o`rtacha umr ko`rishi 67 yoshdan 73 yoshga, jumladan, ayollarning o`rtacha umr ko`rishi 75 yoshga etganida o`z ifodasini topdi.

2008 yilda boshlangan global moliyaviy iqtisodiy inqirozning jaxon iqtisodiyotiga, birinchi navbatda, rivojlangan yirik mamlakatlar iqtisodiyotiga salbiy ta'siri davom etayotgan bir sharoitda keyingi besh yilda O`zbekistonda iqtisodiy o`sish sur'atlari o`rtacha 8,5 foizni tashkiletdi. Bu Markaziy Osyyodagi o`rtacha o`sish ko`rsatkichidan yuqori ekanligini aloxida ta'kidlash lozim.

2011 yilning o`zida mamlakatimizda ish xaqi 20,2 foizga, budget tashkilotlari xodimlarining ish xaqi, pensiyalar, nafaka va stipendiyalar mikdori esa 26,5 foizga usdi. Umuman, keyingi o`n yil davomida yurtimizda axoli daromadlari xajmi 8,1 marotabaga ortdi.

Mamlakatda sog`liqni saqlash tizimini yanada isloh qilish va rivojlantirish borasidagi ishlar izchil va tizimli asosda davom ettirilmoqda. O`tgan yilning o`zida davolash profilaktika muassasalarini rekonstrukqiya qilish, ularni zamonaviy laboratoriya, diagnostika va davolash jixozlari bilan ta'minlash uchun qiymati

qariyb 137 milliard so`mlik budjet mablag`lari hamda 136 million dollarlik xorijiy imtiyozli kredit va grantlar yunaltirildi. So`nggi o`n yil mobaynida esa sog`likni saqlash soxasini rivojlantirishga yunaltirilgan budjet mablag`lari hamda imtiyozli kredit va grantlar 750 million AQSH dollaridan ziyodni tashkiletdi.

Mamlakatimizda tashkil etilgan 3200 dan ziyod kishloq vrachlik punktlari odamlar salomatligini muhofaza qilish tizimini isloh etish va uning bugunini kuchaytirishda g`oyat muhim rol o`ynamoqda.

Ayniqsa, oilani mustahkamlash, oila rishtalari barqarorligini ta'minlashga mamlakatimizda hamisha katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Xozirgi vaqtida deyarli barcha viloyatlarda ona va bola perinatal hamda skrining markazlari faoliyat ko`rsatmoqda. Qishloq joylardagi barcha xomilador ayollar davlat budjeti mablag`lari xisobidan sog`lom naslni shakllantirish uchun zarur polivitaminlar bilan ta'minlanmoqda.

Bunday kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida o`tgan 20 yil davomida mamlakatimizda onalar va go`daklar o`limi uch barobardan ko`proq kamaydi. Onalik va bolalikni muhofaza qilish buyicha bu ulkan sa'y-harakatlar halqaro hamjamiyat tomonidan ham e'tirof etilmoqda. «Bolalarni asraylik» halqaro tashkiloti tomonidan 2011 yilda tuzilgan 161 mamlakatdan iborat jaxon reytingida usib kelayotgan yosh avlod salomatligi xaqida eng ko`p g`amxo`rlik ko`rsatilayotgan davlatlar orasida O`zbekiston 9 o`rinni egalladi.

2014 yil “Sog`lom bola yili” davlat dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlarni tahlil etar ekan Prezident I.A.Karimov quyidagi fikrlarni bildirib o`tadi: “Farzandlarimiz o`rtasida yuqumli kasalliklarning oldini olish maqsadida bu yil milliy emlash kalendariga rotavirus vaktsinasi kiritilib, qariyb 300 ming bola ushbu vaktsina bilan emlandi.

Mamlakatimizda nogiron bolalar tug`ilishining oldini olishdek oliyjanob maqsadni amalga oshirishda respublikamizning barcha hududlarida faoliyat ko`rsatayotgan, nufuzi va samarasi tobora ortib borayotgan skrining markazlarining rolini alohida ta'kidlashni xohlardim. Bugungi kunda ana shunday

o`ta muhim muammoni echishda bu markazlar katta o`rin tutmoqda. Birgina joriy yilning o`zida ushbu markazlar tomonidan 20 mingdan ortiq nuqsonli bola tug`ilishining oldi olinganini hech narsa bilan o`lchab-qiyoslab bo`lmaydi, desam, o`yaymanki, sizlar ham bu fikrga qo`shilasiz.

SHu yo`lda amalga oshirayotgan ishlarimiz, sarflangan mablag`, kuch va imkoniyatlarimiz natijasida qanchadan-qancha go`daklarning benuqson dunyoga kelishi, sog`lom va baquvvat bo`lib voyaga etishi, avvalo, shu bolaning o`zi, ota-onasi va oilasi uchun, butun jamiyatimiz uchun qanday quvonch va baxt keltirishini tasavvur qilishning o`zi qiyin, desak, ayni haqiqatni aytgan bo`lamiz<sup>1</sup>. Mamlakatimizda xotin-qizlarning dam olishi, salomatligini tiklashiga ham katta e'tibor berilmoqda. Bu haqda gapirganda, bir raqamga diqqatingizni qaratmoqchiman. Har yili kasaba uyushmalariga qarashli sanatoriylarda dam olayotgan aholining 60 foizini ayollar tashkil etmoqda. 2017 yilda 75 mingga yaqin ayol ana shunday maskanlarda imtiyozli yo'llanmalar asosida sog`lomlashtirildi.<sup>2</sup>

Jamiyatimizning asosi bo`lmish oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarni, ayniqsa, yosh oilalarning huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish hamda qo`llab-quvvatlashni kuchaytirish borasida olib borilayotgan barcha ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko`tarish, jismonan sog`lom, ma`naviy etuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini oshirish, ma`naviy negizlarimizni yanada rivojlantirish, azaliy milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va mustahkamlash, yuksak ma`naviy muhitni keng qaror toptirish maqsadida qabul qilingan «Mustahkam oila yili» Davlat dasturida «Oila sog`lom ekan — jamiyat mustahkam, jamiyat

<sup>1</sup> Каримов И.А. Мамлакатимизни демократик янгилаш ва модернизация килишга қаратилган тараккӣёт йўлимизни қатъият билан давом еттириш – бош мақсадимиздир”. Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилингандигининг 22 йиллигига бағишиланган тантанали маросимдаги маъзуза. Т.: Халқ сўзи. № 240. 2014 йил 6 декабр

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил 7 март куни Халқаро хотин-қизлар куни байрами муносабати билан учрашувдаги нутқи

mustahkam ekan — mamlakat barqaror» degan insonparvar tamoyil o`zining yorqin ifodasini topgan.

Har bir oila a'zosining jamiyatni tushunishi, hayot, mehnat, qonun va huquqni qay darajada anglashi va unga rioya qilishi jamiyat ravnaqini belgilovchi muhim omildir. Biroq bugungi kundagi oila instituti bilan bog`liq masalalarning ilmiy tadqiq etilishi masalalarining tahlili mamlakatimizda ushbu masalaga oid tadqiqlarning etarli darajada emasligi xaqida mulohaza keltirib chiqaradi.

SHu o`rinda mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash, odil sudlovnii amalga oshirish borasida qilingan ishlar xaqida kisqacha to`xtalib o`tish joiz. Aytish kerakki, 2011 yilda mamlakatimiz miqyosida 93945 nafar shaxs jinoiy qilmishga qo`l urgani aniqlangan. SHundan 2645 nafarini voyaga etmaganlar, 14829 nafarini ayollar, 1532 nafarini o`quvchilar, 33623 nafarini esa, xech qaerda ishlamaydigan va o`qimaydigan shaxslar tashkil etadi<sup>1</sup>.

SHuningdeq 2011 yidda sudlarning ish yurituviga 92520 nafar shaxsga nisbatan 65353 ta jinoyat ishi kelib tushgan. SHundan 82672 nafar shaxsga nisbatan 58666 ta jinoyat ishi ko`rib tamomlangan.

Bundan tashqari, 2011 yilda sudlar tomonidan 339 ming 78 nafar shaxsga nisbatan 287 ming 253 ta ma'muriy ish, 324 ming 149 ta fuqarolik ishi ko`rib chiqilgan. 1 mln. 785 ming 713 ta ariza buyicha esa sud buyrug`i chiqarilgan<sup>2</sup>.

Albatta, jamiyatimizdaadolat va qonun ustuvorligini ta'minlash borasida xali qilinajak ishlarimiz ko`p. Birgina 2011 yidda sodir etilgan jinoiy qilmishlar, garchi oldinga yillarga nisbatan ancha pasaygan bo`lsada, bu holat bilan sira murosa qilib bo`lmaydi.

SHu ma'noda hayotdagi turli xil jinoiy qilmishlar, qonunbuzarlik dolatlariga qarshi kurashishda nafaqat huquqni mudofaza qiluvchi idoralar, balki FXDYO organlari, xotin-qizlar qo`mitasi va maxalla ham aloxida o`rin tugishini inobatga oladigan bo`lsaq bu boradagi o`zaro hamkorlikni yanada izchil yulga qo`yish zarur.

---

<sup>1</sup> Мустафоев Б. Мустахкам оила –жамият барқарорлигининг асоси Ҳуқуқ ва бурч №4 2012 Б.5

<sup>2</sup> Мустафоев Б.Мустахкам оила –жамият барқарорлигининг асоси Ҳуқуқ ва бурч №4 2012 Б.5

Biz bugun jamiyatimiz tayanchi bo`lgan oilaning mustahkamligini ta'minlash, uning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish to`g`risida fikr yuritayotgan ekanmiz, har birimizning faoliyatimizga bevosita daxldor qo`yidaga masalalarga ham to`xtalib o`tish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, mamlakatimiz miqyosida olib qaraganda, nikoxdan ajralishlar soni yildan-yilga kamaymayotganini kuzatish mumkin. Masalan, statistik ma'lumotlarga ko`ra, nikoxdan ajralishlar soni 2010 yilda 21060 tani, 2011 yilga esa, bu ko`rsatkich 22749 tani tashkil etgan<sup>1</sup>.

Xush, nega bunday holat kuzatilmoqda? Buning sasabları nimalardan iborat?

Aytish kerakki, Oliy sud tomonidan 2011 yilda nikoxdan ajratish buyicha ko`rilgan ishlar umumlashtirilib taxlil etilganda, quyidagi xolat kuzatildi: oilalarning buzilishiga 1039 xolatda erkakning spirtli ichimlik iste'mol qilishi, 114 xolatda giyoxvandlik moddasiga ruju qo'yishi, 6338 xolatda esa, oilaviy hayotga kaynona, kaynota va boshqa shaxslarning aralashuvi sabab bo`lgan<sup>2</sup>.

Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, sudya ham, FXDYO idorasi va xotin-qizlar qo`mitasi xodimi, maxalla faollari ham sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilgan nizoli oilaning shart-sharoitlarni, oilaning buzilishgacha olib kelgan sabablarni obdon o`rganishi va oilani saqlab qolish choralarini ko`rishi kerak.

YA'ni nizolashayotgan er bilan xotinga o`z vaqtida to`g`ri maslahat berilsa, ularni kiynayotgan muammoning echimini topishga ko`maklashsa, umuman aytganda, oilani to`g`ri yo`lga tushib olishiga tayanch va suyanch bo`lsak o`ylaymanki, bunday oila yana axil-inoq yashab ketadi. Ayniqsa, bunday nizoli ish yuzasidan xususiy ajrim chiqargan sudya ushbu xujjatning to`liq ijrosini nazorat qilish talab etiladi.

Ikkinchidan, yana statistik ma'lumotlarga murojaat etadigan bo`lsak respublikamiz miqyosida otalikni belgilash xolatlari 2011 yilda 2010 yilga nisbatan

---

<sup>1</sup> Мустафоев Б. Мустаҳкам оила –жамият барқарорлигининг асоси Ҳуқуқ ва бурч №4 2012 Б.6

<sup>2</sup> Мустафоев Б.Мустаҳкам оила –жамият барқарорлигининг асоси Ҳуқуқ ва бурч №4 2012 Б.7

368 taga ko`paygan<sup>1</sup>. Bunday xolatning asosiy sabablaridan biri, ayrim ota-onalar xali balog`at yoshiga etmagan qizlarini shar`iy nikox asosida turmushga o`zatayotgani bilan izoxlanadi. YA`ni ota-onaning istagi bilan o`n besh o`n olti yoshda turmushga uzatilgan qiz, tabiiyki, qonuniy nikoxdan o`ta olmaydi. Buning oqibatida esa, farzand tug`ilgach, otalikni belgilash masalasi yuzaga keladi.

SHuning uchun bunday xolatlarning oldini olish, qonuniy nikoxning afzalliklarini tushuntirish maqsadida sudyalar, FHDYO idoralari va xotin-qizlar qo`mitasi xodimlari hamkorlikda targ`ibot-tashviqot ishlarini yanada kuchaytirishi zarur, deb o`yayman.

Kezi kelganda yana bir xolatga e'tibor qaratmoqchiman. Ma'lumki, bugungi kunda FXDYO idoralari qoshida «YOsh oila dorilfununi», «YOsh oila quruvchilar maktabi» kabi o`quv mashg`ulotlari mavjud. Albatta, ushbu o`quv mashg`ulotlari yoshlarning oila xaqidagi tasavvurlarini shakllantirishda muhim o`rin tutadi.

SHu bois ham ushbu o`quv mashg`ulotlarida tashkil etiladigan suxbat va ma'ruzalar har qanday rasmiyatichilikdan holi, ya'ni hayotiy va jonli bo`lsa, o`yaymanki, yoshlarni o`ziga yanada ko`proq jalb etib, amalda kutilgan samarani beradi.

Prezidentimiz tomonidan yosh avlodni, yosh oilalarni har jixatdan qo`llab-quvvatlash, ularning xech kimdan kam bo`lmay hayot kechirishlari yulida odillik bilan olib borilayotgan siyosat zamirida ana shunday katta ma'no-mazmun mujassam.

Zotan, davlatimiz siyosatining asosiy yunalishi, maqsadi insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash, har bir fuqaro **uchun** munosib turmush tarzini yaratib berish, ayniqsa, yoshlarni jismoniy jixatdan sog`lom va kuchli, iymoni but, axlqliy saloxiyati yuksak etib tarbiyalash, ko`p bolali oilalarga, ota-onas qarovidan maxrum etimlarga g`amxo`rlik ko`rsatishdan iboratdir.

---

<sup>1</sup> Мустафоев Б. Мустахкам оила –жамият баркарорлигининг асоси Хукуқ ва бурч №4 2012 Б.7

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda oila bilan bog`liq qonunchilikni zamon talablariga uyg`un ravishda takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratilayotgani yurtimizda oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarnint huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish hamda qo`llab-kuvvatlash bo`yicha amalga oshirilayotgan ishlarni yangi boskichga olib chiqishga xizmat qiladi.

## **2.2. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida oila qonunchiliginin takomillashtirish masalalari**

Mustaqillik yillarda davlatimizda amalga oshirilib kelinayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatimizning bosh mazmun-mohiyati inson, uning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan bo`lib, bu ayniqsa bugungi kunda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning asosiy mohiyati – oilaning mustahkam bo`lishini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya qilish, ular uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishda namoyon bo`lmoqda. Darhaqiqat, inson uchun u qanday yutuqlarga erishganidan qat'i nazar, oila muqaddas sanalgan. Binobarin, Birlashgan Millatlar tashkiloti (BMT) tomonidan 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjaxon Deklaratsiyasi”ning 16-moddasi 3-bandida “oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi sanaladi va jamiyat hamda davlat tomonidan himoya qilinishga haqli”ekanligi belgilab qo`yilgan. Bu o`rinda, xalqaro umume’tirof etilgan qoidalar asosida mamlakatimizda oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning asosi O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining “Oila” deb nomlangan XIV bobi hamda uning asosida 1998 yilda qabul qilingan O`zbekiston Respublikasi Oila kodeksi oilaning muqaddas ekanligini belgilab berishga qaratilgan qoidalar o`z aksini topgan. Jumladan, Asosiy qonunning 63-moddasida “Oila –jamiyatning asosiy bo`g`inidir hamda davlat muhofazasida bo`lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi”, deb belgilangan. Bundan tashqari, O`zbekiston Respublikasi Oila kodeksida nikoh tuzish masalalari bilan birga qon-qarindoshlik, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish, ota-onalardagi voyaga etmagan bolalarning huquq va majburiyatları, ota-onalardagi qaramog`idan mahrum bo`lgan bolalarni joylashtirish shakllari va boshqa oilaviy munosabatlarga taaluqli masalalar huquqiy jihatdan mustahkamlab qo`yilgan.

Ta’kidlash joizki, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 23 yanvardagi PQ -573-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy himoya yili”Davlat

dasturining 5.2-bandи ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 17 apreldagi 78-sonli Qarori bilan "Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to`g`risida"gi Nizomning 2, 5, 11, 29-bandiga ko`ra, 50-yoshdan katta shaxslarning nikohini ro`yxatdan o'tkazishda tibbiy ko'rikdan faqat ularning roziligidagi ko`ra amalga oshirilishi belgilab qo'yildi. Ushbu qoida esa o`z navbatida, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 17-moddasiga tegishli o`zgartirishlar kiritish zaruriyatini keltirib chiqardi<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 17-moddasiga qo'shimchalar kiritish to`g`risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining XIX yalpi majlisida 2009 yil 29 avgust kuni ma'qullandi. Mazkur Qonun 2009 yil 8 sentabrda matbuotda e'lon qilindi va kuchga kirdi. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 17-moddasiga qo'shimchalar kiritish to`g`risida"gi qonuni 2 moddadan iborat.

Mazkur qonunning maqsadi – nikohlanuvchi shaxslarning tibbiy ko'rikdan o'tish tartibini takomillashtirish va ularga qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan. Ushbu Qonunga ko`ra, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 17-moddasiga, ya'ni nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish haqidagi qoidalarga aniqlik kiritilib, quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to`ldirildi: "Ellik yoshdan oshgan nikohlanuvchi shaxslar tibbiy ko'rikdan o`z roziligi bilan o'tkaziladi".

Ma'lumki, mamlakatimizda oila qurish arafasidagi yoshlar bir-birining salomatligi haqida aniq ma'lumotga ega bo`lishini ta'minlash orqali kelgusida befarzandlik, jismoniy, ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo`lgan bola tug`ilishining oldini olishga, nikohlanuvchilardan birining sog`lig`i bilan bog`liq noxushliklar

<sup>1</sup> Янги қонунлар мөхияти ИИ- Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Амалдаги қонун хужжатлари мониторинги институти. Муллифлар жамоаси. Фоур Ғулом номидаги нашриёт –матбаа ижодий уйи. Тошкент 2010.135-137-б

bois ajralishlarning kamayishiga erishilmoqda, onalar o`limi, nogiron bolalarning tug ilishi tobora kamayib bormoqda. Bundan tashqari, yoshlarning tibbiy madaniyatini oshirish, sog`lom turmush tarzini targ`ib etish borasida targ`ibot va tashviqot ishlari natijasida yoshlarimizda tibbiy ko`rikka nisbatan qiziqish oshmoqda.

Albatta, buning uchun respublikamizda o`tgan mustaqillik yillarida mavjud barcha fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlari tomonidan nikohlanuvchi shaxslardan arizalar qabul qilingan va nikohlanuvchi shaxslarning davlat sog`liqni saqlash tizimi muassasalarida tibbiy ko`rikdan o`tishlari uchun etarli shart-sharoitlar yaratib kelinmoqda. SHu bilan birga, FHDYO organlari va statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko`ra, nikohlarni qayd etish amaliyotida nikohlanuvchi shaxslarning 50 yoshdan oshganligi sababli ular tomonidan tibbiy ko`rikdan o`tishni rad etish hollari ham uchrab turibdi. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida, yoshi 50 dan oshgan nikohlanuvchi shaxslar orasida o`zaro farzandlari borlari, ko`p yillardan beri birga yashayotganlari ham mavjud bo`lgan. Natijada, ular tomonidan tibbiy ko`rikdan o`tish rad etilgan. Boshqacha aytganda, yoshi 50 yuqori bo`lgan nikohlanuvchi fuqarolarning ba`zilari o`z ixtiyori bilan tibbiy ko`rikdan o`tmagan holda nikoh tuzishgan. SHu boisdan, “O`zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 17-moddasiga qo`sishimchalar kiritish to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasining qonuni bilan O`zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 17-moddasiga kiritilgan qo`sishimchani metalitetimizga xos bo`lgan milliy qadriyatlar va an'analar, zamonaviy huquqshunoslik tajribalarini uyg`unlashtirgan holda ifoda etilgan huquqiy qoidalardan biri sifatida e'tirof etish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari Birlashgan Millatlar Tashkilotini (BMT) tomonidan 1966 yil 19 dekabrda qabul qilingan “Fuqarolik va siyosiy huquqlar to`g`risida”gi xalqaro Paktning 23-moddasi 4-bandi qoidalalariga (mazkur paktda ishtirok etuvchi davlatlar nikohdan o`tishda, nikohda bo`lgan vaqtida va u bekor qilinayotganda er-xotinlarning huquq hamda majburiyatlari tengligini ta'minlash

uchun zarur choralar ko`rishlari lozim) amal qilishining yorqin ifodasi bo`lib hisoblanadi.

Mamlakatimiz milliy qonunchiligidagi mazkur o`zgartirish yurtimizda istiqomat qilayotgan turli millat va elatlarning o`ziga xos urf-odatlari, mahalliy va milliy xususiyatlarini inobatga olgan holda oilani mustahkamlashga, unda ma`naviy va jismoniy sog`lom avlodni tarbiyalashga, oilaning ijtimoiy, iqtisodiy, ma`naviy-axloqiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan O`zbekiston Respublikasining Oila kodeksidagi nikohlanuvchi shaxslar tibbiy ko`rikdan o`tkazishga qaratilgan qoidalarini takomillashtirishga qaratilgan desak, mubolag`a bo`lmaydi. YUrtboshimiz O`zbekiston Respublikasi Kontitutsiyasi qabul qilinganligining 21 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagи ma`ruzalarida sog`lom avlodni tarbiyalash borasidagi muammolar va vazifalar xususida fikr bildirib quyidagi fikrlarni bildirib o`tdilar: “Barchamiz yaxshi tushunamizki, sog`lom farzandni tarbiyalashda aholi, ayniqsa, otonalarning tibbiy madaniyatni muhim ahamiyat kasb etadi. SHu sababli dasturni shakllantirishda tibbiy madaniyatni oshirishga qaratilgan keng ko`lamli tushuntirish ishlariga alohida o`rin berish ayni muddao bo`ladi.

Ma`lumki, mamlakatimizda bo`lg`usi kelin-kuyovlarni nikohdan oldin tibbiy ko`rikdan o`tkazish tartibi joriy etilgan bo`lib, bundan ko`zlangan asosiy maqsad sog`lom oila qurish, sog`lom bolani dunyoga keltirish bilan bog`liq. Lekin, afsuski, insonning hayoti, tug`ilajak farzandning taqdiriga bevosita dahldor bu masalaga ba`zan mas`uliyatsizlik bilan qarash, sohta va yuzaki xulosalar chiqarish, tibbiy ma`lumotnomalarini sotib olish kabi holatlar uchrab turishi barchamizni tashvishga solishi zarur. Ayni shu masalalar uchun, umuman, bolalarning sog`lom, benuqson bo`lib tug`ilishi uchun tibbiyot xodimlarining mas`uliyatini, kerak bo`lsa, javobgarligini oshirish vaqtি keldi, deb o`ylayman”<sup>1</sup>.

YUqoridagi fikrlardan kelib chiqib, fikrimizcha, O`zbekiston Respublikasining Ma`muriy javobgarlik kodeksiga “Nikohlanuvchi shaxslarni

---

<sup>1</sup> Каримов И.А.Амалга ошираётган ислоҳотларимизни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамияти қуриш – ёруғ келажагимизнинг асосий омилидир. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 21 йиллигига бағишиланган тантанали маросимдаги маъруза. Т. Халқ сўзи. 2013 йил 8 декабр

tibbiy ko`rikdan o`tkazish qoidalarini buzganlik uchun” alohida javobgarlik asoslarini kiritish lozim deb hisoblaymiz.

Mamlakatimizda 2012 yilning “Mustahkam oila yili” deb nomlanishi O`zbekistonda oila qonunchiligi asoslarini takomillashtirish, ushbu sohadagi ishlarning yanada jonlanishiga turtki bo`ldi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 27 fevralda “Mustahkam oila yili” Davlat dasturi to`g`risida<sup>1</sup> gi PQ-717-son Qarori qabul qilindi<sup>2</sup>. Davlatimiz rahbarining ushbu Qarorida “Sog`lom ona-sog`lom farzand” tamoyiliga muvofiq oila salomatligini, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga alohida e`tibor qaratilgani bu yo`nalishdagi ishlarni yanada yuksak bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi<sup>3</sup>. “Mustahkam oila yili” davlat dasturi 8 ta yo`nalish 87 banddan iborat bo`lib, unda bugungi kun talablarini hisobga olgan holda oila institutini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan qonunchilik normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, bu masalaga jamiyatimiz e`tiborini yanada kuchaytirishga e`tibor qaratishga alohida urg`u berilgan.

Ta’kidlash joizki, “Mustahkam oila yili” Davlat dasturida belgilangan ustuvor yo`nalishlar asosida yurtimizda keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Xususan Davlat dasturi doirasida barcha moliyaviy manbalar hisobidan 2 trillion so`mdan ortiq hamda 100 million AQSH dollaridan ziyod mablag` sarflanganligining o`zi mamlakatimizda aholi manfaatlarini o`ylab qilinayotgan ishlar ko`laming nechog`lik keng va ulkan ekanidan dalolat beradi<sup>3</sup>.

Yurtboshimiz I.A.Karimov o`zlarining O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 19 yilligiga bag`ishlangan ma’ruzalarida quyidagi fikrlarni ta’kidlab o`tadilar: “Bu haqda gapirganda, avvalo, mamlakatimizda oila institutini rivojlantirish va takomillashtirish bo`yicha

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 27 февралда “Мустаҳкам оила йили” Давлат дастури тўғрисида ги ПҚ-717-сон қарори. Т.: Халқ сўзи. 2012 йил 28 феврал.

<sup>2</sup> Мардиева Т. “Аёл – оила чароғбони”. Ҳуқук ва бурч. № 3 (75) 2012.13-15-б

<sup>3</sup> Инсон манбаати, ҳуқук ва ёркинликларини таъминлаш, ҳаётимизнинг янада ёркин ва обод бўлишига еришиш –бизнинг бош мақсадимиздир. Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 20 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузасини ўрганиш бўйича ўкув кўлланма. Муаллифлар жамоаси. Т.: “Ўқитувчи” нашриёти 2013 й. 60-б.

yangitdan qabul qilinadigan qonun, qoida va normalarda bugungi va ertangi kunimizning talablari aks etishi, amaldagi qonun hujjatlariga zarur o`zgartish va qo`shimchalar kiritish, bu masalaga jamiyatimizning e'tiborini yanada kuchaytirish ko`zda tutilayotganini ta'kidlash kerak”<sup>1</sup>.

“Mustahkam oila yili” Davlat dasturining **1.1. bandida** bugungi kun talablarini hisobga olgan holda oila institutini rivojlantirish hamda takomillashtirishga qaratilgan “O`zbekiston Respublikasining Oil a kodeksiga o`zgartish va qo`shimchalar kiritish to`g`risida” O`zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish masalasiga e'tibor qaratilgan bo`lib unda quyidagilar o`z aksini topdi:

*O`zbekiston Respublikasining oila qonunchiligi sohasida milliy xususiyatlar va an'analarni, xalqaro tajribani, hisobga olgan holda ishlab chiqilgan hamda oila institutini rivojlantirish va takomillashtirish yuzasidan qo`shimcha qoidalarni, xususan quyidagilarni nazarda tutadigan qonun loyihasi:*

- xotin-qizlar uchun nikoh yoshini o`n sakkiz yoshgacha oshirish, bunda nikoh yoshini bir yilgacha kamaytirishi mumkin bo`lgan istisno qilinadigan holatlarni aniqlashtirish;
- bolalarni asrab olish mexanizmini takomillashtirish;
- bolalar tarbiya muassasasiga joylashtirilgan bolaning ota-onasidan sud tomonidan undiriladigan alimentlarni bankda shu bola nomiga ochilgan hisobraqamda jamg`arish va unga voyaga etganidan so`ng to`lashni ko`zda tutuvchi tartibni joriy qilish;

*Dasturning 1.2. bandiga asosan O`zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish organlari to`g`risida” va “Fuqarolar yig`ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to`g`risida”gi qonunlariga o`zgartish hamda qo`shimchalar kiritish haqida O`zbekiston*

<sup>1</sup> Каримов И.А. “Бизнинг йўлими – демократик ислоҳотларни чукурлаштириш ва модернизация жараёнларини изчил давом еттириш йўлидир”. Халқ сўзи. 8 декабр 2011 йил.

*Respublikasi qonunlari loyihalarini ishlab chiqish.* Bunda fuqarolarning o`zini o`zi boshqarish instituti – mahalla faoliyat ko`rsatishining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, yordamga muxtoj oilalarga manzilli ijtimoiy ko`mak berish, yosh oilalar shakllanishini qo`llab-quvvatlash, oilaviy biznesni rivojlantirishda mahallaning ahamiyati va rolini oshirish<sup>1</sup>.

*Dasturning 1.3. bandiga asosan “Vasiylik va homiylik to`g`risida” O`zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish va unda quyidagilarni nazarda tutish:*

- Vasiylik va homiylikni davlat tomonidan qo`llab-quvvatlashni kuchaytirish, vasiylik va homiylik organlarining huquq hamda majburiyatlarini belgilash;
- Vasiylik va homiylikni belgilash, vasiylik va homiylikka olingan shaxslarning mulkini saqlash hamda boshqarish mexanizmini takomillashtirish;
- Etim bolalar va ota-onalarning qaramog`idan mahrum bo`lgan bolalarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish.

*Dasturning 1.4. bandiga asosan “Oilaviy tadbirkorlik to`g`risida” O`zbekiston Respublikasi qonunini ishlab chiqish va qabul qilish va unda quyidagilarni nazarda tutish:*

- xo`jalik faoliyatining oilaviy korxona ko`rinishidagi yangi tashkiliy-huquqiy shaklini joriy etish;
- oilaviy korxona ishtirokchilari, faoliyat sohasi va uni tashkil etishning huquqiy asoslarini aniq belgilash;
- oilaviy korxona uchun ro`yxatga olish va tugatish, kommunal infratuzilma ob`ektlaridan, tadbirkorlik faoliyati jarayonida uy-joy inshootlaridan foydalanishning soddalashtirilgan tartibini belgilash.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 27 февралда “Мустаҳкам оила йили” Давлат дастури тўғрисида” ги ПҚ-717-сон қарори. Т.: Халқ сўзи. 2012 йил 28 феврал.

2012 yilda dastur doirasida “Oilaviy tadbirkorlik to`g`risida”gi qonunning qabul qilinishi, unda oilaviy tadbirkorlikning huquqlari, majburiyatlari, mehnat munosabatlari hamda davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash shakllari belgilab berilishi bu boradagi ishlarning samarasidan dalolat beradi.

***Dasturning 1.5. bandiga asosan “Bolalar uylari to`g`risidagi Nizomni tasdiqlash to`g`risida” Vazirlar Mahkamasi qarorining loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash hamda unda quyidagilarni nazarda tutish:***

Sog`liqni saqlash vazirligi tizimida bolalar uylarini barpo qilish va faoliyatini tashkil etish tartibi, shuningdek, ularning asosiy vazifa va funktsiyalari;

etim bolalar va ota-onas qaramog`idan mahrum bo`lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishning davlat kafolatlari;

etim bolalar va ota-onas qaramog`idan mahrum bo`lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni ta`minlashda Sog`liqni saqlash vazirligi, boshqa manfaatdor vazirlik va idoralarning vazifalari.

Ushbu belgilangan vazifalarning davomiyligini ta`minlash maqsadida 2013 yilning “Obod turmush” yili deb e’lon qilinishi, 2014 yilning “Sog`lom bola” yili deb e’lon qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini keltirib o`tish joiz: “Azal-azaldan har qaysi ota-onas o`z bolasining sog`lom va barkamol, aql-zakovatli, baxtli bo`lishini istaydi. SHunday farzandni voyaga etkazish, uning hayotda munosib o`rin egallashiga erishish, shu borada ularga ko`maklashish - ota-onaning eng ulug`, eng muqaddas orzusi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo`lamiz.

Biz sog`lom deganda, nafaqat jismoniy, balki ma’naviy jihatdan ham sog`lom bolani o`zimizga tasavvur etamiz.

Mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab yurtimizda sog`lom ona - sog`lom bola masalasi davlat siyosatining ustuvor yo`nalishiga aylangani, keng qo`lamli umummilliy dasturlarimiz doirasida amalga oshirayotgan ulkan ishlarimiz jahon miqyosida ham tan olingani sizlarga yaxshi ma’lum.

Ayni vaqtida bugungi shiddatli zamon, hayotning o`zi yosh avlod tarbiyasi borasida oldimizga yangi-yangi, o`ta muhim va dolzarb vazifalarni qo`ymoqda”<sup>1</sup>.

Davlatimiz tomonidan oilani mustahkamlashga qaratilgan keng qamrovli ishlar olib borilayotganiga qaramay, afsuski, bu borada kamchiliklar ham yo`q emas. Xususan, sudlar nikohdan ajratish bilan bog`liq ishlarni ko`rishda Oliy sud plenumining “Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo`yicha qonunchilikni qo`llash amaliyoti to`g`risida”gi qarorida qo`yilgan talablar, jumladan, oilani mustahkamlash, er-xotin va ularning bolalari huquqlari hamda qonun bilan qo`riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratib kelayotgan bo`lsa-da, ajrimlar hamon uchrab turibdi.

Statistik ma'lumotlarga ko`ra, 2011 yilda otalikni belgilash holatlari 2061 tani tashkil etgan<sup>2</sup>. Buning sabablaridan biri ota-onalar qizlarini 15-16 yoshda shar'iy nikoh o`qitib turmushga uzatib yuborishidir. Er yoki xotin birinchi turmushi bilan qonuniy ajrashmasdan turib, ikkinchisi bilan yashab kelayotgani oqibatida farzand tug`ilishi ham otalikni belgilashni taqozo etmoqda.

Bunday holatlarning oldini olish uchun ayrim chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurati tug`ilmoqda. Jumladan, Oila kodeksiga har bir FXDYO organida nikohlanuvchi yoshlarni turmushga tayyorlashga yo`naltirilgan huquqiy, tibbiy va psixologik maslahat markazlari tashkil etilishi haqidagi norma kiritilishi maqsadga muvofiq. Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 2 fevraldagagi 54-qarori asosida Adliya vazirligi buyrug`i bilan har bir FXDYO bo`limi qoshida “Oilal dorilfununi”, “YOsh oila maktabi”tashkil etilganiga qaramay, bugungi kunda bu markazlar faoliyati asosan huquqiy maslahat berish bilan cheklanib qolmoqda. Bundan tashqari, ushbu markazlar faoliyatidan, ularning vazifasi nimadan iborat ekanidan yoshlar, ayniqsa, nikohlanuvchilar ko`pincha bexabarligi ham ma'lum.

<sup>1</sup> Каримов И.А. Амалга ошираётган ислоҳотларимизни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамияти куриш – ёруғ келажагимизнинг асосий омилидир. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 21 йиллигига бағишиланган тантанали маросимдаги маъруза. Т. Халқ сўзи. 2013 йил 8 декабр

<sup>2</sup> Мардиева Т. “Аёл – оила чароғбони”. Ҳуқуқ ва бурч. № 3 (75) 2012.13-15-б

Fikrimizcha, bunday markazlar doimiy faoliyat yuritib, ularda psixologlar, tibbiyot xodimlari va huquqshunoslar ish olib borishlari maqsadga muvofiq.

Jamiyatni sog`lomlashtirish uchun, eng avvalo, oilada sog`lom turmush tarzini yo`lga qo`yish lozim. SHu bois o`smirlarning tibbiy savodxonligini oshirish, sog`lom oilani shakllantirish, yaqin qarindoshlar va voyaga etmaganlar o`rtasidagi nikohning oldini olish borasida sudlar tomonidan doimiy tushuntirishlar olib borilmoqda. Zero, oilaning sog`lomligi, mustahkamligi, farovonligi jamiyat barqarorligining muhim omilidir.

SHu bilan bir qatorda mamlakatimizda oila institutining huquqiy asoslarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz:

**1.** Oila Kodeksining 1- moddasi «**Oila to`g`risidagi qonun xujjatlari xamda ularning vazifalari**» deb nomlanib, unda “Oila to`g`risidagi qonun xujjatlari ushbu Kodeksdan hamda unga muvofiq qabul qilinadigan boshqa qonun xujjatlaridan iborat” degan qoida o`rnatilgan. Biroq fikrimizcha oila qonunchiligi borasida fikr yuritganda avvalo mamlakatimizda Konstitutsiyaning IX bobida oilaning davlat tomonidan konstitutsiyaviy kafolatlanganligini va ushbu huquqiy asos Oila kodeksi uchun ham asosiy huquqiy asos bo`lishini unutmasligimiz lozim. Qolaversa ushbu moddada Konstitutsiyadan tashqari O`zbekistonda Konstitutsiyaviy asosda ustunligi tan olingan xalqaro inson huquqlariga oid xujjatlarning milliy qonunchilik uchun asos bo`lishi to`g`risidagi qoida ham o`z aksini topmagan. YUqoridagilardan kelib chiqib, fikrimizcha, O`zbekistonda oila institutining davlat tomonidan kafolatlanishi masalasi bevosita O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining alohida IX bobida o`z aksini topgani va bu hol O`zbekiston Respublikasi konstitutsionalizmida birinchi marotaba amalga oshirilganligini inobatga olgan holda *O`zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 1-moddasini «Oila to`g`risidagi qonun xujjatlari O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ushbu Kodeksdan xamda unga muvofiq qabul qilinadigan boshqa qonun xujjatlaridan iborat» tahrirda bayon qilinishi lozim deb hisoblaymiz.*

2. Oila kodeksining moddalarini huquqiy tahlil qilish jarayonida tamoyillar masalasiga etarli e'tibor qaratilmaganligi, ularning umumlashtirilgan holda bayon qilinmaganligi, ularning odatiy normativ-huquqiy qoida sifatida talqin qilinganligini ko`rishimiz mumkin. *SHu sababli fikrimizcha kodeksda “Oilaviy munosabatlarni tartibga solishning umumiyligi tamoyillari” deb nomlangan alohida modda ostida tamoyillarni alohida mustahkamlash lozim deb hisoblaymiz.*

SHu bilan bir qatorda, fikrimizcha, Kodeksga BMTning tegishli qo`mitalari tomonidan tavsiya qilingan “Oilada ayollarga nisbatan zo`ravonlik va diskriminatsiyaga yo`l qo`ymaslik”, “Ayollar va erkaklarning reproduktiv teng huquqliligi”, “Bola manfaatlarini oilada yuqori darajada ta'minlash” kabi tamoyillarning ham kiritilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

3. Ma'lumki hayotimizda bir qator muammolar yuzaga kelib, ushbu muammolarni echimini topish bo'yicha yangi yo'llarni izlash lozim bo`ladi. Bugungi kunda oilaviy munosabatlar sohasida yuzaga kelayotgan o`ta dolzarb muammolar sifatida nikoh tuzishning shakllari, erta nikoh, poligam nikohlarni qayd etib o`tish mumkin. Xususan Oila kodeksiga asosan O'zbekiston Respublikasida faqat FXDYO organlari tomonidan qayd etilgan rasmiy nikoh yuridik kuchga egaligi tan olinsa-da, biroq bugungi kunda FXDYO organlaridan nikohdan o`tmay diniy nikoh (shar'iy nikoh) orqali oilaviy munosabatlarni shakllantirish holatlari ko`payib bormoqda. Bir ko`rinishda diniy udumlarga rioya qilish harakatlarini ayblash uchun asos yo`qdek tuyuladi. Biroq bu nikohlar qonuniy hisoblanmasligi, “diniy er yoki xotinni” aliment to`lashga majbur qilib bo`lmasligi, mulkni bo`lish mumkin emasligi kabi holatlarni e'tiborga olsak albatta bugungi kunda ushbu nikohlarni oldini olish bo'yicha keng tushuntirish va targ`ibot ishlari bilan bir qatorda ushbu holatni oldini olishga qaratilgan huquqiy asoslarni ham takomillashtirish lozimligi to`g`risidagi mulohaza tug'iladi. *Xususan, fikrimizcha, ayollarning huquqiy ongini yuksaltirish bilan bir qatorda Oila kodeksida “diniy nikohdagi ayol qonuniy xotin hisoblanmasligi”*

*to`g`risidagi qoidani kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.* SHu sababli bizningcha O`zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga quyidagi tahrirda qo`shimcha kiritish tavsiya qilinmoqda:

**“SHar’iy nikoh<sup>1</sup>” diniy rusumiga asosan tuzilgan nikohga kirishgan shaxslar, diniy nikoh noqonuniy hisoblangani bois, alimentlar olish, mulk va uy(xonadon)ni bo`lish da’vosi bilan chiqish huquqiga ega emas”.**

Fikrimizcha ushbu qoidaning kiritilishi fuqarolarning ongida shar’iy nikohning huquqiy oqibatlarini tushunib etishga yordam bergan bo`lar edi.

4. Ma’lumki poligamiya nikox munosabatlarining shakli sifatida qadimdan ma’lum. Afsuski shu eskilik sarqitlari bugungi kunda dunyoviy hisoblangan, huquqiy demokratik va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo`lidan borayotgan O`zbekistonda ham borgan sari ko`payib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri birinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida o`ziga to`q aholining ko`payib borishi bo`lsa, ikkinchidan ba’zi fuqarolarimizning huquqiy ongi darajasining pastligi bilan izohlanadi. Bugungi kunda O`zbekistonda poligamiyaning oldini olish bo`yicha Jinoyat kodeksining 126-moddasida ko`p xotinlik jinoyati uchun jinoiy javobgarlik asoslari belgilangan. Biroq Jinoyat kodeksining ushbu moddasining dispozitsiya qismida ko`p xotinlik deganda umumiyl xo`jalik asosida ikki yoki undan ko`p xotinlar bilan yashash ushbu jinoyatning sodir etilishi uchun asos bo`lishi mumkinligi to`g`risidagi qoida belgilangan. Biroq bugungi kundagi jamiyatimizda uchrayotgan poligamiya o`zining shakli bilan ushbu ta’rifdan umuman yiroq. CHunki bugungi kunda aholining turmush darajasining o`sishi, iqtisodiy va moliyaviy jihatdan yuksalib borishi jarayonida ko`pincha o`ziga to`q shaxslar ikkinchi va ayrim hollarda uchinchchi xotin uchun alohida uy-joy, yashash uchun sharoitlar yaratib berishadi hamda ularni iqtisodiy jihatdan ta’minalashadi. O`z-o`zidan esa bu holatni JKning 126-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish uchun asos bormi degan savol tug`iladi. SHu sababli poligamiyaning oldini olish borasidagi qonunchilikni takomillashtirish

---

<sup>1</sup> “Шаръий-никоҳ” шариат бўйича тузилган никоҳ , “оила-никоҳ” –диний нормаларга асосланган оила.

nuqtai nazaridan kelib chiqib, fikrimizcha, Oila kodeksining 15-moddasiga quyidagi qoidani kiritish lozim deb hisoblaymiz: “Ko`pxotinlik ta’qil qiladi. Umumiy yoki alohida xo`jalik asosida ikki yoki undan ko`p xotinlar bilan yashash huquqiy oqibat keltirib chiqaradi”. SHu jumladan JKning 126-moddasiga ham zarur holda tegishli o`zgartirish kiritish lozim deb hisoblaymiz.

## X U L O S A

Jamiyatimizning asosi bo`lmish oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarni, ayniqsa, yosh oilalarning huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish hamda qo`llab-quvvatlashni kuchaytirish borasida olib borilayotgan barcha ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko`tarish, jismonan sog`lom, ma`naviy etuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning rolini oshirish, ma`naviy negizlarimizni yanada rivojlantirish, azaliy milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va mustahkamlash, yuksak ma`naviy muhitni keng qaror toptirish masalalari davlatimiz siyosatining asosiy yo`nalishlaridan biriga aylandi. Zero, bu muqaddas maskanda nafaqat inson dunyoga keladi, balki u ma`nan va axloqan tarbiyalanadi, shaxs sifatida shakllanadi va kamol topadi. SHu o`rinda YUrtboshimiz Islom Karimovning quyidagi fikrlarini keltirib o`tish joiz deb hisoblaymiz: “Sog`lom oila vujudga kelishi uchun, eng avvalo, jamiyat va davlat qayg`urishi, shunga zamin yaratib berishi lozim. SHundagina mustahkam oila dunyoga keladi. Oila sog`lom bo`lsa, jamiyat sog`lom, mamlakat qudratli, yurt tinch – osoyishta bo`ladi”<sup>1</sup>.

Bugunga kelib mamlakatimizdagi oilalar soni 7,5 milliondan oshdi. Ularning 1 millionga yaqini yosh oilalardir<sup>2</sup>. O`z-o`zidan O`zbekistonda oila institutining mustahkamlanib borishi va oilaviy munosabatlarning rivojlanishi mamlakatimizda oila institutini mustahkamlashga oid qonunchilikning takomillashib borishini talab qiladi va ushbu masalalarni ilmiy-nazariy jihatlarini tadqiq etishga keng e'tibor qaratish lozimligini ko`rsatadi.

O`zbekistonda oila institutining rivojlanishi, uning konstitutsiyaviy-huquqiy mustahamlanishi va takomillashib borishi jarayonlarini ilmiy-nazariy tahlili quyidagi xulosalarga kelishga va bir qator ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalarni ilgari surishga imkon berdi:

<sup>1</sup> Каримов И.А. Соғлом авлод тарбияси – барчамизнинг муқаддас инсоний бурчимиз. 2000 йил 24 феврал. Соғлом авлод дастурини тасдиқлашга бағишланган мажлисда сўзланган нутқ. “Тафаккур” журнали, 2000 йил 2-сон.

<sup>2</sup>Одилқориев Х.Т. Конституция ва баркамол жамият орзуси.Т.: “Ўқитувчи”. 2012. 205-Б

**Birinchidan**, O`zbekiston Pespublikasida amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma`naviy islohotlar jarayonida oila institutini mustahkamlash, uni qo`llab-quvvatlashga oid konstitutsiyaviy-huquqiy asoslar yaratildiki, bu asoslar bugungi kunda o`zbek oilasining mustahkam poydevorini tashkil qilmoqda. Xususan mamlakatimiz Konstitutsiyasida oilani konstitutsiyaviy kafolatlashga bag`ishlangan maxsus bobning ajratilishi nafaqat mamlakatimiz qonunchiligida, balki jahon konstitutsionalizm amaliyotida o`ziga xos yangi tajribadir.

**Ikkunchidan**, O`zbekistonda oila institutini mustahkamlashning o`ziga xos milliy modeli shakllandiki unga asosan davlat organlari va fuqarolik jamiyatining barcha institutlari o`zaro hamkorlikda har yili ma`lum yo`nalish bo`yicha Davlat dasturlari (1997 yil- “Inson manfatlari yili”, 1998 yil-“Oila yili”, 1999 yil-“Ayollar yili”, 2000 yil-“Sog`lom avlod yili”, 2001 yil- “Onalar va bolalar yili”, 2002 yil – “Qariyalarni qadrlash yili”, 2003 yil – “Obod mahalla yili”, 2004 yil – “Mehr va muruvvat yili”, 2005 yil – “Sihat-salomatlik yili”, 2006 yil –“Homiyalar va shifokorlar yili”, 2007 yil – “Ijtimoiy himoya yili”, 2008-yil “YOshlar yili”, 2009 yil- “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili”, 2010 yil – “Barkamol avlod yili”, 2011 yil “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili”, 2012 yil – “Mustahkam oila yili”, 2013 yil – “Obod turmush yili”, 2014 yil “Sog`lom bola yili”, 2016-yil “Sog`lom ona va bola yili”) asosida oilaning mavqeini yuksaltirish, uning davlat va jamiyat hayotidagi rolini oshirish, shuningdek oilani ijtimoiy va huquqiy muhofazasini kafolatlash, uning iqtisodiy mavqeini ko`tarish va farovonligini oshirishga qaratilgan umumiylar maqsadlar ostida birgalikda faoliyat olib borishmoqda. SHu bilan bir qatorda ushbu yillarda oila institutining huquqiy asoslarini takomillashtirish ishlari ham bosqisma-bosqich amalga oshirilmoqda deyish uchun to`liq asos bor.

**O`zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarini takomillashtirish bilan bog`liq bo`lgan taklif va tavsiyalar**

**1.** Oila Kodeksining 1- moddasi «*Oila to`g`risidagi qonun xujjatlari xamda ularniig vazifalari*» deb nomlanib, unda “Oila to`g`risidagi qonun xujjatlari ushbu Kodeksdan xamda unga muvofiq qabul qilinadigan boshqa qonun xujjatlaridan iborat” degan qoida o`rnatilgan. Biroq fikrimizcha oila qonunchiligi borasida fikr yuritganda avvalo mamlakatimizda Konstitutsiyaning IX bobida oilaning davlat tomonidan konstitutsiyaviy kafolatlanganligini va ushbu huquqiy asos Oila kodeksi uchun ham asosiy huquqiy asos bo`lishini unutmasligimiz lozim. Qolaversa ushbu moddada Konstitutsiyadan tashqari O`zbekistonda Konstitutsiyaviy asosda ustunligi tan olingan xalqaro inson huquqlariga oid xujjatlarning milliy qonunchilik uchun asos bo`lishi to`g`risidagi qoida ham o`z aksini topmagan. YUqoridagilardan kelib chiqib, fikrimizcha, O`zbekistonda oila institutining davlat tomonidan kafolatlanishi masalasi bevosita O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining alohida IX bobida o`z aksini topgani va bu hol O`zbekiston Respublikasi konstitutsionalizmida birinchi marotaba amalgalashirilganligini inobatga olgan holda *O`zbekiston Respublikasi Oila Kodeksining 1-moddasini «Oila to`g`risidagi qonun xujjatlari O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ushbu Kodeksdan xamda unga muvofiq qabul qilinadigan boshqa qonun xujjatlaridan iborat» tahrirda bayon qilinishi lozim deb hisoblaymiz.*

**2.** Oila kodeksining moddalarini huquqiy tahlil qilish jarayonida tamoyillar masalasiga etarli e`tibor qaratilmaganligi, ularning umumlashtirilgan holda bayon qilinmaganligi, ularning odatiy normativ-huquqiy qoida sifatida talqin qilinganligini ko`rishimiz mumkin. *SHu sababli fikrimizcha kodeksda “Oilaviy munosabatlarni tartibga solishning umumiyligi tamoyillari” deb nomlangan alohida modda ostida tamoyillarni alohida mustahkamlash lozim deb hisoblaymiz.*

SHu bilan bir qatorda, fikrimizcha, Kodeksga BMTning tegishli qo`mitalari tomonidan tavsiya qilingan “Oilada ayollarga nisbatan zo`ravonlik va

diskriminatsiyaga yo`l qo`ymaslik”, “Ayollar va erkaklarning reproduktiv teng huquqliligi”, “Bola manfaatlarini oilada yuqori darajada ta’minlash” kabi tamoyillarning ham kiritilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

3. Ma’lumki hayotimizda bir qator muammolar yuzaga kelib, ushbu muammolarni echimini topish bo`yicha yangi yo`llarni izlash lozim bo`ladi. Bugungi kunda oilaviy munosabatlar sohasida yuzaga kelayotgan o`ta dolzarb muammolar sifatida nikoh tuzishning shakllari, erta nikoh, poligam nikohlarni qayd etib o`tish mumkin. Xususan Oila kodeksiga asosan O`zbekiston Respublikasida faqat FXDYO organlari tomonidan qayd etilgan rasmiy nikoh yuridik kuchga egaligi tan olinsa-da, biroq bugungi kunda FXDYO organlaridan nikohdan o`tmay diniy nikoh (shar’iy nikoh) orqali oilaviy munosabatlarni shakllantirish holatlari ko`payib bormoqda. Bir ko`rinishda diniy udumlargacha qilish harakatlarini ayplash uchun asos yo`qdek tuyuladi. Biroq bu nikohlar qonuniy hisoblanmasligi, “diniy er yoki xotinni” aliment to`lashga majbur qilib bo`lmasligi, mulkni bo`lish mumkin emasligi kabi holatlarni e’tiborga olsak albatta bugungi kunda ushbu nikohlarni oldini olish bo`yicha keng tushuntirish va targ`ibot ishlari bilan bir qatorda ushbu holatni oldini olishga qaratilgan huquqiy asoslarni ham takomillashtirish lozimligi to`g`risidagi mulohaza tug`iladi. *Xususan, fikrimizcha, ayollarning huquqiy ongini yuksaltirish bilan bir qatorda Oila kodeksida “diniy nikohdagi ayol qonuniy xotin hisoblanmasligi” to`g`risidagi qoidani kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.* SHu sababli bizningcha O`zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga quyidagi tahrirda qo`shimcha kiritish tavsiya qilinmoqda:

**“SHar’iy nikoh<sup>1</sup>” diniy rusumiga asosan tuzilgan nikohga kirishgan shaxslar, diniy nikoh noqonuniy hisoblangani bois, alimentlar olish, mulk va uy(xonadon)ni bo`lish da’vosi bilan chiqish huquqiga ega emas”.**

Fikrimizcha ushbu qoidaning kiritilishi fuqarolarning ongida shar’iy nikohning huquqiy oqibatlarini tushunib etishga yordam bergan bo`lar edi.

---

<sup>1</sup> “Шаръий-никоҳ” шариат бўйича тузилган никоҳ, “оила-никоҳ” –диний нормаларга асосланган оила.

4. Ma'lumki poligamiya nikox munosabatlarining shakli sifatida qadimdan ma'lum. Afsuski shu eskilik sarqitlari bugungi kunda dunyoviy hisoblangan, huquqiy demokratik va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lidan borayotgan O'zbekistonda ham borgan sari ko`payib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri birinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida o`ziga to`q aholining ko`payib borishi bo`lsa, ikkinchidan ba`zi fuqarolarimizning huquqiy ongi darajasining pastligi bilan izohlanadi. Bugungi kunda O'zbekistonda poligamiyaning oldini olish bo'yicha Jinoyat kodeksining 126-moddasida ko`p xotinlik jinoyati uchun jinoiy javobgarlik asoslari belgilangan. Biroq Jinoyat kodeksining ushbu moddasining dispozitsiya qismida ko`p xotinlik deganda umumiyoq xo`jalik asosida ikki yoki undan ko`p xotinlar bilan yashash ushbu jinoyatning sodir etilishi uchun asos bo`lishi mumkinligi to`g`risidagi qoida belgilangan. Biroq bugungi kundagi jamiyatimizda uchrayotgan poligamiya o`zining shakli bilan ushbu ta'rifdan umuman yiroq. CHunki bugungi kunda aholining turmush darajasining o`sishi, iqtisodiy va moliyaviy jihatdan yuksalib borishi jarayonida ko`pincha o`ziga to`q shaxslar ikkinchi va ayrim hollarda uchinchi xotin uchun alovida uy-joy, yashash uchun sharoitlar yaratib berishadi hamda ularni iqtisodiy jihatdan ta'minlashadi. O`z-o`zidan esa bu holatni JKning 126-moddasi bilan kvalifikatsiya qilish uchun asos bormi degan savol tug'iladi. SHu sababli poligamiyaning oldini olish borasidagi qonunchilikni takomillashtirish nuqtai nazaridan kelib chiqib, fikrimizcha, Oil a kodeksining 15-moddasiga quyidagi qoidani kiritish lozim deb hisoblaymiz: "Ko`pxotinlik ta'qiqlanadi. Umumiyoq yoki alohida xo`jalik asosida ikki yoki undan ko`p xotinlar bilan yashash huquqiy oqibat keltirib chiqaradi". SHu jumladan JKning 126-moddasiga ham zarur holda tegishli o`zgartirish kiritish lozim deb hisoblaymiz.

5. Sudlar nikohdan ajratish bilan bog`liq ishlarni ko`rishda Oliy sud plenumining "Sudlar tomonidan nikohdan ajratishga oid ishlar bo'yicha qonunchilikni qo'llash amaliyoti to`g`risida"gi qarorida qo'yilgan talablar, jumladan, oilani mustahkamlash, er-xotin va ularning bolalari huquqlari hamda

qonun bilan qo`riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratib kelayotgan bo`lsa-da, ajrimlar hamon uchrab turibdi.

Statistik ma'lumotlarga ko`ra, 2011 yilda otalikni belgilash holatlari 2061 tani tashkil etgan<sup>1</sup>. Buning sabablaridan biri ota-onalar qizlarini 15-16 yoshda shar'iy nikoh o`qitib turmushga uzatib yuborishidir. Er yoki xotin birinchi turmushi bilan qonuniy ajrashmasdan turib, ikkinchisi bilan yashab kelayotgani oqibatida farzand tug`ilishi ham otalikni belgilashni taqozo etmoqda.

Bunday holatlarning oldini olish uchun ayrim chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurati tug'ilmoqda:

*Jumladan, Oila kodeksiga har bir FXDYO organida nikohlanuvchi yoshlarni turmushga tayyorlashga yo`naltirilgan huquqiy, tibbiy va psixologik maslahat markazlari tashkil etilishi haqidagi norma kiritilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.*

Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 2 fevraldagagi 54-qarori asosida Adliya vazirligi buyrug`i bilan har bir FXDYO bo`limi qoshida “Oila dorilfununi”, “YOsh oila maktabi”tashkil etilganiga qaramay, bugungi kunda bu markazlar faoliyatini asosan huquqiy maslahat berish bilan cheklanib qolmoqda. Bundan tashqari, ushbu markazlar faoliyatidan, ularning vazifasi nimadan iborat ekanidan yoshlar, ayniqsa, nikohlanuvchilar ko`pincha bexabarligi ham ma'lum. *SHuning uchun fikrimizcha ushbu markazlar faoliyatini ham qayta ko`rib chiqish, ularni rivojlantirish va samaradorligini oshirish lozim. Fikrimizcha, bunday markazlar doimiy faoliyat yuritib, ularda psixologlar, tibbiyot xodimlari va huquqshunoslar ish olib borishlari maqsadga muvofiq.*

SHu bilan bir qatorda nikoh munosabatlarini saqlanib qolishida muhim o`rin tutishi mumkin bo`lgan institut mahalla instituti ahamiyatini ham e'tiborga olgan holda mahalla fuqarolar yig`inida tashkil etilgan yarashtiruv komissiyalar faoliyatini ham amaliy ahamiyatini kuchaytirish lozim. Xususan qonunchilikda nikohning bekor bo`lishi jarayonida mahalla fuqarolar yig`iniga ma'lum muddatda

---

<sup>1</sup> Мардиева Т. “Аёл – оила чароғбони”. Ҳуқуқ ва бурч. № 3 (75) 2012.13-15-6

er va xotinni yarashtirish bo`yicha va oilani saqlab qolish maqsadida yarashtiruv komissiyasi faoliyati orqali tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutiladi. Biroq ushbu komissiya tarkibida faoliyat olib borayotgan shaxslarning huquqiy savodxonligi, ularning psixologik tayyorgarligi har doim ham talab darajasida deb bo`lmaydi. *SHu bois fikrimizcha o`zini-o`zi boshqarish organlari qoshidagi yarashtiruv komissiyalar vakillarini maxsus kurslarda o`qishlarini tashkil etish va ularni ham huquqiy ham psixologik tayyorlash oilalarni saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.*

Bo`lajak kelin kuyovlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ularda oilaga xos bilim va ko`nikmalarni shakllantirish, qurilajak oilaning mustahkam bo`lishida katta yordam berishini e'tiborga olgan holda bugun fuqarolar yig`inlari qoshida tashkil etilayotgan “Orasta qizlar”, “Sarishtali kelin – farishtali kelin” kabi maxsus kurslar, o`quv mashg`ulotlarini tashkil etilganligini qo`llab quvvatlash lozim. Biroq bu kurslar asosan faqat qizlar ya’ni bo`lajak kelinlar uchun mo`ljallangan bo`lib, bo`lajak kuyovni hayotga, uni oila deb atalmish muqaddas maskan sari yo`lga tayyorlash borasida hech qanday kurslar, markazlar yo`qligi achinarli hol. *Vaholanki hozirgi kunda oilaning mustahkamlagini va barqarorligini ta'minlashda, ikki begona shaxs tomonidan barpo etilgan oilada o`zaro munosabatlarning shakllanish jarayonida yuz berishi mumkin bo`lgan tushunmovchilik, anglashilmovchilik va uning oqibatida yuzaga keladigan salbiy oqibatlarni oldini olishda erving mas’uliyati ayolnikiga qaraganda ikki baravar yuqoriligini e’tiborga olib, o`zini-o`zi boshqarish organlari qoshida yigitlarni oilaga psixologik tayyorlash bo`yicha ko`nikmalarni shakllantiruvchi markazlarni tashkil etish ham lozim deb hisoblaymiz.*

YUrtboshimiz O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 21 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzalarida sog`lom avlodni tarbiyalash borasidagi muammolar va vazifalar xususida fikr bildirib quyidagi fikrlarni bildirib o`tdilar: “**Barchamiz yaxshi tushunamizki, sog`lom farzandni tarbiyalashda aholi, ayniqsa, ota-onalarning tibbiy madaniyati muhim ahamiyat kasb etadi.** SHu sababli dasturni

shakllantirishda tibbiy madaniyatni oshirishga qaratilgan keng ko`lamli tushuntirish ishlariga alohida o`rin berish ayni muddao bo`ladi.

2014 yilning “Sog`lom bola yili” deb e’lon qilinishi zamirida ham aynan mustahkam oila zamirida barkamol avlodni tarbiyalash masalasi yotadi desak mubolag`a bo`lmaydi. Bu borada Prezident I.A.Karimov quyidagi fikrlarni bildiradi: “Sog`lom bola – avvalo, sog`lom va ahil oilaning mevasidir, degan hayotiy hikmatdan kelib chiqqan holda, yil davomida oilada o`zaro hurmat muhitini, uning iqtisodiy va ma’naviy asoslarini mustahkamlash, yosh oilalarni qo`llab-quvvatlash, onalik va bolalikni himoyalash, opa-singillarimizning og`irini engil qilish, ularning qobiliyat va imkoniyatlarini ro`yobga chiqarish bo`yicha ham keng ko`lamli ishlar amalga oshirildi.

Sog`lom va mustahkam oilalarni barpo etish sog`lom kelajak poydevori ekanini nazarda tutib, turmush qurayotgan yoshlarning nikohdan oldin tibbiy ko`rikdan to`liq o`tishlarini ta’minalash, shu asosda irsiy va tug`ma kasalliklarning oldini olish bo`yicha sezilarli ishlar qilindi. Jumladan, bo`lajak kelin-kuyovlarni tibbiy ko`rikdan o`tkazadigan poliklinikalar zamonaviy tibbiyot va diagnostika asbob-uskunalari bilan jihozlandi. Eng muhimi, yangi oila qurayotgan 2 mingdan ortiq yoshlarda turli kasalliklar aniqlanib, ular ambulator va statsionar sharoitda davolandi.

“Sog`lom ona – sog`lom bola” loyihasi doirasida jami 13 million 600 mingdan ziyod ayollar va bolalar tibbiy ko`rikdan o`tkazildi. Buning natijasida 2 million 800 ming ayol va 2 million 500 ming bola sog`lomlashtirilgani bu yo`ldagi katta qadam bo`ldi”<sup>1</sup>.

Ma’lumki, mamlakatimizda bo`lg`usi kelin-kuyovlarni nikohdan oldin tibbiy ko`rikdan o`tkazish tartibi joriy etilgan bo`lib, bundan ko`zlangan asosiy maqsad sog`lom oila qurish, sog`lom bolani dunyoga keltirish bilan bog`liq. Lekin, afsuski, insonning hayoti,

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Мамлакатимизни демократик янгилаш ва модернизация қилишга қаратилган тараққиёт йўлимини катъият билан давом еттириш – бош мақсадимиздир”. Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилингандигининг 22 йиллигига бағишиланган тантанали маросимдаги маъруза. Т.: Халқ сўзи. № 240. 2014 йил 6 декабр

tug`ilajak farzandning taqdiriga bevosita dahldor bu masalaga ba'zan mas'uliyatsizlik bilan qarash, sohta va yuzaki xulosalar chiqarish, tibbiy ma'lumotnomalarni sotib olish kabi holatlar uchrab turishi barchamizni tashvishga solishi zarur. Ayni shu masalalar uchun, umuman, bolalarning sog`lom, benuqson bo`lib tug`ilishi uchun tibbiyat xodimlarining mas'uliyatini, kerak bo`lsa, javobgarligini oshirish vaqtি keldi, deb o`yayman”<sup>1</sup>.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, fikrimizcha, O`zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik kodeksiga “Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko`rikdan o`tkazish qoidalarini buzganlik uchun” alohida javobgarlik asoslarini kiritish lozim deb hisoblaymiz.

Ushbu mavzuning uzviy davomi sifatida shuni ta'kidlash lozimki nikohlanuvchi shaxslar Nizomga muvofiq asosan psixik, narkologik, tanosil kasalliklari, sil kasalligi va OITS kasalliklari bo`yicha tibbiy ko`rikdan o`tish majburiy deb belgilangan. Biroq fikrimizcha bugungi kunda davlatimiz siyosatining ustuvor yo`nalishi sifatida aynan sog`lom oila va uning zamirida sog`lom bolani shakllantirish yotayotgan ekan Nizom talabidagi beshta majburiy tibbiy ko`rikdan tashqari boshqa kasalliklar bo`yicha ham majburiy ko`riklarni tashkil etish masalasini ham kun tartibiga qo`yish lozim. Xususan onkologik kasalliklar, qandli diabet kabi sog`ayishi qiyin bo`lgan kasalliklar hamda oilaning mustahkamligiga putur etkazishi mumkin bo`lgan jinsiy ojizlik bilan bog`liq ayrim kasalliklar bo`yicha tibbiy ko`rikdan o`tkazish mexanizmini ham kiritish lozim deb hisoblaymiz.

## **6. SHuningdek qonunchilikdagi yana bir qator masalalarga ham alohida e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz:**

- Oila kodeksida “otalik” tushunchasi huquqiy jihatdan belgilanmaganligi sababli qonunchilikda ushbu masalaga oydinlik kiritish lozim;

---

<sup>1</sup> Каримов И.А.Амалга ошираётган ислоҳотларимизни янада чукурлаштириш ва фуқаролик жамияти куриш – ёргуғ келажагимизнинг асосий омилидир. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 21 йиллигига бағишиланган тантанали маросимдаги маъруза. Т. Халқ сўзи. 2013 йил 8 декабр

- Bugungi kunda otalikni belgilashda tajribalarining yutuqlaridan keng foydalanyotganligi ma'lum. Biroq qonunchilikda bu masala o`z aksini topmagan. Fikrimizcha Oila kodeksiga otalikni belgilash asoslaridan biri sifatida meditsina-genetika tajribalari asosida aniqlangan ma'lumotlarni taqdim etish masalasini ham kiritish lozim deb hisoblaymiz;

- Bola huquqlari to`g`risidagi konventsianing 7-moddasida Bola tug`ilishi bilan ro`yxatga olinishi lozim degan qoida belgilangan. Biroq O`zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 205-moddasiga asosan bola tug`ilgandan so`ng bir oy ichida ro`yxatga olinishi lozim. Biroq bir oy ichida turli hayotiy holatlar (Bolaning o`g`irlanishi, uning almashtirib qo`yilishi, uni hayotdan mahrum qilish va boshqalar) ning yuzaga kelishini inobatga olgan holda bolaning tug`ilishi bilan ro`yxatga olinishi uni birdaniga davlat, jamiyat va qonun himoyasiga olinishini anglatadi. SHu bois qonunchilikdagi ushbu masalani ham ko`rib chiqish lozim deb hisoblaymiz.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

### **I. Rahbariy adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T: O‘zbekiston, 2016 yil.
2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – O‘zbekiston, 2017 y.
3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz.-T.: O‘zbekiston, 2017 yil.
4. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yolimizdan qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz T. “O‘zbekiston” 2017 yil.
5. Mirziyoev Sh.M. Oliy Majlisga murojatnomfsi Xalq so’zi 2017 yil 23 dekabr.
- 6.“O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” 2017 yil 7 fevraldagি PF-49-47 –son Farmoni” 2017 yil.
- 7.Karimov I.A.O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.: O`zbekiston. 1993.
8. .Karimov I.A. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. T.: O`zbekiston. 1995.
9. .Karimov I.A. YAngicha fikrlash va ishlash - davr talabi. T.: O`zbekiston . T-5. 1997.
- 10 .Karimov I.A. Qonun vaadolat ustuvorliginiing hayotbaxsh manbai. 1998 yil 5 dekabr. Asarlar, 7-tom. T.: O`zbekiston. 249-B.
11. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqoqlikT. 6. - T.: “O`zbekiston”, 1998
12. .Karimov I.A. Sog`lom avlod tarbiyasi – barchamizning muqaddas insoniy burchimiz. 2000 yil 24 fevral. Sog`lom avlod dasturini tasdiqlashga bag`ishlangan majlisda so`zlangan nutq. “Tafakkur” jurnali, 2000 yil 2- son.

## **II. Asosiy adabiyotlar** **Normativ-huquqiy xujjalalar:**

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.O`zbekiston. 2014 y.
2. Umumjahon inson huquqlari deklaratsiyasi (1948)
3. BMTning Bola huquqlari to`g`risida Konventsiyasi: BHK (1989)
4. Qiynoq hamda muomala va jazolashning qattiq, shavfqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konventsiya (1984)
5. Ayollarga nisbatan kamsitishlarning hamma shakllarini tugatish to`g`risidagi konventsiya (1979)
6. BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikga qarshi konventsiyanı to`ldiruvchi Odam ayniqsa ayollar va bolalar savdosini oldini olish va ta'qilash to`g`risida”gi Protokol (2000)
7. “Bolalar hayoti uchun yaroqli dunyo” BMT deklaratsiyasi (2002)
8. Konstitutsiya Vengerskoy Respublikı  
<http://www.auditorium.ru/books/116/Hungary/01.html>
9. Konstitutsiya Respublikı Bulgarii  
<http://www.auditorium.ru/books/116/Bulgaria/01.html> (Obnarodovana v "D'rijaven vestnik", br.56 ot 13 yuli 1991 g.)
10. O`zbekiston SSR nikoh va oila kodeksiga sharhlar. T., “O`zbekiston”, 1975, 13-bet.
11. Sbornik dekretov i prikazov. SNK TASSR 23 noyabrya 1917 po 1 iyulya 1918. T., 33-bet.
12. Vestnik Komissariata yustitsii Turkestanskoy respublikи. 1919, 1-сон, 3-20-бетлар;
13. O`zbekiston Respublikasining Oilal kodeksi. O`zbekiston Respublikasining 1998 y. 30 apreldagi Qonuni bilan tasdiqlangan. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998 y. 30 apreldagi Qaroriga muvofiq 1998 y. 1 sentabrdan e'tiboran amalga kiritilgan // www. lex. uz.

14. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 27 fevralda "Mustahkam oila yili" Davlat dasturi to`g`risida" gi PQ-717-soni qarori. T.: Xalq so`zi. 2012 yil 28 fevral.

15. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 y. 12 aprel "O`zbekiston Respublikasining Oila kodeksini amalga oshirish uchun zarur bo`lgan me'yoriy xujjatlarni tasdiqlash to`g`risida"gi qarori // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

16. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2003 y. 25 avgust "Nikoxlanuvchi shaxslarni tibbiy ko`rikdan o`tkazish tutrisidagi Nizomni" tasdiqlash xaqida Qarori // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

17. Fuqarolik xolati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 y. 12 apreldagi Qaroriga ilova // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

18. O`zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to`g`risida Nizom. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 y. 12 apreldagi Qaroriga ilova // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

### **Maxsus adabiyotlar:**

1. Abdurauf Fitrat. Oila. – T.: "Ma'naviyat", 1998.
2. Abdullaeva M. «Entsiklopediya semi». «Mustaxkam oila – barkaror jamiyat tarakkiyoti kafolati». Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. Tashkent 2012 g. str. 378-379
3. Axmedov B. O`zbek ulusi. T., 1992.
4. J.Yo`ldoshev, S.Xasanov «Avesto»da axlokiy-ta'limiy karashlar. T., 1992.
5. X.Raxmonkulov Fukarolik: xukuklar, erkinliklar, burchlar. T., «O`zbekiston», 1991.
6. Ataxodjaev F.M. "Vozniknovenie i razvitiye sovetskogo zakonodatelstva o zaklyuchenii i rastorjenii braka v Uzbekistane. Tashkent: Izd-vo SamGU, 1983. - 131 s;

7. F.Otaxo`jaev Nikox va uning xukukiy tartibga solinishi. T., «O`zbekiston», 1995;
8. F.Otaxo`jaev Konstitutsiya va oila. TDYUI, 2002.
9. Rizouddin Ibn Faxruddin. Oila. T., «Mexnat», 1991.
10. M.Quronov, O.Bazarov Oilam mustahkam bo`lsin desangiz. Sano-standart nashriyoti. Toshkent 2012.
11. Odilkoriev X,. Konstitutsiya va fukarolik jamiyati. - Toshkent: SHark, 2002.-B.320
12. Odilqoriev X.T. Konstitutsiya va barkamol jamiyat orzusi.T.: “O`qituvchi” NMIU. 2012.
13. Imomov N, YUldasheva SH. Mustahkam oila –jamiyat va davlat tayanchi. TDYUI. 2011.
14. Inson huquqlari to`g`risida xalqaro bill. T., «Adolat», 1992, 14-bet.
15. 1998 yil - Oila yili - 1998 - God semi. T., «O`zbekiston», 1998, 9-10-betlar.
16. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., «O`zbekiston», 2000, 66-bet.
17. A.O.Makovelskiy. Avesto. Baku, 1960, 80-81-betlar.
18. H.Homidov. “SHohnoma”ning shuhrati. T., “O`zbekiston”, 1991, 93-94-betlar.
19. N.A.Kislyakov. Ocherki po istorii braka u narodov Sredney Azii i Kazaxstana. Leningrad, 1969, 16-bet.
20. Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-tom, T., “Fan”, 1968, 72-bet.
21. Istorya narodov Uzbekistana. T., “Fan”, 1950, 56-bet.
22. O`zbekiston SSR tarixi. I-tom T., “Fan”, 1967, 78-bet
23. M.Ishoqovning Unutilgan podsholikdagi xatlar. T., “Fan”, 1992.
24. Qur’oni karim (Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur), T., «CHo`lpon», 1992 y.

25. Maqsudxo`ja ibn Mansurxo`ja. «Majma’ ul-Maqsd yoki Muxtasar-ul Viqoya»ning o`zbekcha sharhi. T., «Adolat», 1996.
26. Amir Temur o`gitlari.T., “Navro`z”.1992, 57-58-betlar
27. Rizouddin ibn Faxruddin. Oila. T., “Mehnat”, 1991, 5-bet.
28. Qarang: Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis. 2-jild. T., Qomuslar bosh tahririyati, 1996, 161-162-betlar.
29. Qur’oni karim. Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. T., “CHo`lpon”, 1992, 34-bet.
30. O`zbekiston yuridik entsiklopediyasi. — Toshkent: Adolat, 2009. — B.592-593.
31. YAngi qonunlar mohiyati II- O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun xujjatlari monitoringi i instituti. Mulliflar jamoasi. G`ofur G`ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi. Toshkent 2010.135-137-b
32. Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta’minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo`lishiga erishish –bizning bosh maqsadimizdir. Prezident Islom Karimovning O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasini o`rganish bo`yicha o`quv qo’llanma. Mualliflar jamoasi. T.: “O`qituvchi” nashriyoti 2013 y. 30-b.

**Elektron ta’lim resurslari:**

1. <http://www.lex.uz>
2. “Xalq so`zi” gazetasi – [www.info XS. Uz](http://www.info XS. Uz).
3. “Ma’rifat” jurnali – [www.ma'rifat-inform](http://www.ma'rifat-inform).
4. “Jamiyat va boshqaruv” jurnali – [www.rzult.academy.freenet.uz](http://www.rzult.academy.freenet.uz).
5. [www.ZiyoNet.uz](http://www.ZiyoNet.uz).